

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI  
AKADEMIYA

A. A. AKILOV  
R. N. DIMETOV

YO‘L HARAKATI QOIDALARI  
(BELGILAR, ATAMALAR VA TUSHUNCHALAR)

Toshkent–2012

**Taqrizchilar:**

O‘zbekiston Respublikasi IIV YHXBB Markaziy Axborot  
dispetcherlik xizmati boshlig‘i **A.A. Pardiyeu;**

O‘zbekiston Respublikasi Mudofaaga ko‘maklashuvchi «Vatanparvar» tashkilotining  
Toshkent shahar Bektemir tumani kengashi raisi **Q. K. Xoliqulov;**

IIV Akademiyasi yo‘l transport harakati xavfsizligini tashkil etish kafedrasini  
katta o‘qituvchisi **B. Sh. Umarov**

**Akilov A.A., Dimetov R.N.**

**A-39 Yo‘l harakati qoidalari (belgilar, atamalar va tushunchalar): Lug‘at-  
ma’lumotnoma.** – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012. – 62 b

**ББК 39.808я2**

Lug‘at-ma’lumotnomada yo‘llarda harakatlanish qoidalaridan kelib chiqqan holda yo‘l belgilari va chiziqlari, ularning turlari, xususiyatlari, o‘rnatilish joylari, ta’sir etish hududlari, yo‘llarda harakatlanish xavfsizligiga doir atama va tushunchalarning mazmuni qisqacha bayon qilingan. Shuningdek, har qaysi belgi hamda yo‘l chiziqlarining harakatlanish xavfsizligidagi ahamiyati bo‘yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

Ushbu yo‘nalishda ta’lim olayotgan tinglovchi va kursantlar, shuningdek, haydovchilar, piyodalar hamda keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.

## **So‘z boshi**

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti hamda mamlakatimiz va jahon avtomobilsozlik sanoatining jadal rivojlanishi tufayli yurtimizda avtotransport vositalaridan foydalanuvchilar soni kundan-kunga ortib borayotgani hech kimga sir emas. Bu esa, o‘z navbatida, yo‘l harakati qatnashchilari, ya‘ni haydovchi, yo‘lovchi va piyodalarning yo‘l harakati qoidalariga og‘ishmay rioya etishlarini talab qiladi. Yo‘l harakati qoidalarini yaxshi o‘zlashtirish va amalda qo‘llay olish har bir shaxs uchun koni foyda. Zero, “Yo‘l qoidasi – umr foydasi” degan ibora bejizga aytilmagan. Shundan kelib chiqqan holda, har bir inson o‘z xatti-harakatlarini amalga oshirsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Ushbu lug‘at-ma‘lumotnoma O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 11-dekabrda 472-sonli qarori bilan tasdiqlangan va 2001-yil 1-martdan kuchga kiritilgan O‘zbekiston Respublikasi hududidagi yo‘llarda harakatlanishning yagona tartibini belgilovchi «Yo‘llarda harakatlanish qoidalari» va O‘zbekiston Respublikasining «Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida»gi 1999-yil 19-avgust qonuni talablariga asoslangan holda tayyorlangan. Unda yo‘llarda harakatlanish qoidalari, yo‘l belgilari va chiziqlari hamda ularning mohiyatiga oid tushuncha, atama va ma‘lumotlar alifbo tartibida bayon qilingan. Belgilar ramzi oldidagi raqamlar ularning qaysi belgilar turkumiga taalluqliligini va tartib raqamini anglatadi. Mazkur kitobchani tayyorlashda «Avtomobil tayyorgarligi» fani bo‘yicha ta‘lim oluvchilarning bilimlarini mustahkamlash, ularning kelgusi amaliy faoliyatida avtotransport vositalaridan mohirlik bilan foydalana olishlariga ko‘maklashish maqsadi ko‘zda tutilgan. Bundan tashqari, ushbu kitobcha harakat qatnashchilari, yo‘llarda harakatlanish qoidalarini endigina o‘rganayotgan haydovchilar, haydovchilik guvohnomasini olish uchun imtihon topshiruvchilar, maktab, litsey, kollej o‘quvchilari va oliy o‘quv yurtlarining talabalari uchun foydalidir.

## A

**Avariya** – har xil tasodifiy sinishlar, buzilishlar, transport vositasi harakatlanayotganda qism yoki butun moslamaning ishlamay qolishi. Ko‘pincha, avariya yo‘l-transport hodisasi (YTH) bilan almashtiradilar, lekin avariya har doim ham YTHga olib kelmaydi.



**5.12. «Avtobus va (yoki) trolleybusning to‘xtash joyi»** (axborot-ishora belgisi) belgilangan yo‘nalishli transport vositalarining to‘xtash joyini bildiradi. Ushbu belgining havorang joyida shu yerda (ya‘ni bekatda) to‘xtab o‘tuvchi belgilangan yo‘nalishli transport vositalarining raqamlari aks ettirilishi mumkin. Mazkur belgi o‘rnatilgan joyda (agar belgilangan yo‘nalishli transport vositalariga xalaqit bermasa) istisno tariqasida boshqa transport vositalarining haydovchilari ham o‘z yo‘lovchilarini tushirish yoki chiqarish uchun to‘xtashlari mumkin. Aks holda, belgidan oldin ham, keyin ham 15 m joy qoldirish lozim.

Shaharda belgilangan yo‘nalishli transport haydovchilaridan boshqa haydovchilar bekatdan ketayotgan avtobus va trolleybuslarga yo‘l berishlari lozim. Trolleybus va avtobus haydovchilari ham ularga yo‘l berilayotganligiga ishonch hosil qilganidan keyingina bekatdan harakat qilishlari zarur. Shahardan tashqaridagi yo‘llarda esa avtobus va trolleybus haydovchilari bekatdan chiqayotganlarida to‘g‘ri yo‘lda katta tezlikda harakatlanayotgan transport vositalarini o‘tkazishlari shart.



**5.1. «Avtomagistral»** (axborot-ishora belgisi) yirik shaharlarni bog‘lovchi yo‘llarning boshlanishida o‘rnatiladi. Avtomagistralda tez yurish (ya‘ni soatiga 40 km dan kam bo‘lmagan tezlikda harakatlanish) tartibi joriy etiladi. Bunga avtomagistralda chorrahalarining yo‘qligi (ular o‘rnida transport vositalari harakatlarini ajratuvchi yo‘l ayirgichlari bo‘ladi), piyodalarning yurishlari, to‘xtash (buning uchun magistralning tashqarisida maydonchalar quriladi), orqaga yurish va qayrilishlarning taqiqlanishi kabilar

hisobiga erishiladi. Shuni unutmaslik kerakki, yo‘ldagi harakatlanish qatorlarining ko‘pligi yo‘lning avtomagistral deb atalishiga yetarlicha asos bo‘la olmaydi.



**5.2. «Avtomagistralning oxiri»** (axborot-ishora belgisi) harakatlanishni tashkil etishda 5.1. belgida ko‘rsatilgan cheklovlarning tugaganini bildiradi.



**5.3. «Avtomobillar uchun mo‘ljallangan yo‘l»** (axborot-ishora belgisi) har qanday avtomobil, avtobus va mototsikllar harakatlanadigan yo‘lni bildiradi. Ushbu belgini o‘rnatishdan ko‘zlangan maqsad – mazkur yo‘lda traktor, velosiped, moped va ot-aravalarning harakatlanishiga yo‘l qo‘ymaslik.



**5.4. «Avtomobillar uchun mo‘ljallangan yo‘lning oxiri»** (axborot-ishora belgisi) 5.3. belgidagi cheklovlarning tugaganini bildiradi.



**7.10. «Avtomobillarni ko‘rikdan o‘tkazish joyi»** (qo‘shimcha axborot belgisi) «To‘xtab turish joyi» yoki «Dam olish joyi» belgilari bilan birgalikda qo‘llaniladi va haydovchining kuchi bilan transport vositasiga

mayda texnik xizmat ko‘rsatish uchun handaq yoki estakada borligini ko‘rsatadi.

**Ajratuvchi bo‘lak** – yo‘lning yonma-yon harakatlanish qismini ajratib turuvchi bo‘lak. Unda harakatlanish yoki to‘xtash taqiqlanadi. Ajratuvchi bo‘lakning kengligi yo‘lning harakatlanish kengligiga bog‘liq bo‘ladi. U yo‘lning harakatlanish bo‘lagi bilan bir tekisda yoki balandroq qilib quriladi va ko‘kalamzorlashtiriladi. Agar u 15-20 m bo‘lsa, harakat xavfsizligi uchun ahamiyatlidir. Ammo butalarning o‘sib, chakalakzorga aylanishiga yo‘l qo‘ymaslik kerak.

**Arava** – ot (yoki boshqa hayvonlar)ga qo‘shib yoxud inson kuchi bilan tortib (itarib) harakatga keltiriladigan yurgizgichsiz (dvigatelsiz), yuk tashishga mo‘ljallangan qurilma.



**5.31. «Aylanib o‘tish tasviri»** (axborot-ishora belgisi) sariq rangda bo‘ladi va unda vaqtincha yopib qo‘yilgan yo‘l qismini chetlab o‘tish (qanday tartibda harakatlanish) chizma shaklida ifodalaniladi. Mazkur belgi bevosita aylanib o‘tish joyi oldiga yoki shahardan 50-100 m,



shahar tashqarisidagi chorrahadan 150-300 m oldinda o‘rnatiladi.



**4.3. «Aylanma harakatlanish»** (buyuruvchi belgi) chorrahalar (maydonlar) oldiga oʻrnatiladi. Bunday joylarda faqat aylanma boʻylab, soat miliga qarama-qarshi harakat qilishga va aylanma atrofidagi oʻng tomonga ketadigan har qanday yoʻnalishlarga yurishga ruxsat beriladi. Ammo maydonni (hatto gulzor qilinmagan boʻlsa ham) toʻgʻri kesib oʻtish taqiqlanadi. Ushbu belgi oʻrnatilgan joydan oʻtilgach, harakatlanish mumkin boʻlgan har qanday (oʻnga va chapga) burilishlarga ruxsat etiladi.



**1.7. «Aylanma harakatlanish bilan kesishuv»** (ogohlantiruvchi belgi) aylanma harakatlanish amalga oshiriladigan kesishuv oldiga oʻrnatiladi. Asosan, bevosita kesishuv oldiga 4.3. «Aylanma harakatlanish» buyuruvchi belgisi oʻrnatiladi. Ammo aylanma harakatlanish xavfli burilish yoki doʻnglikdan keyin boshlanadigan yoki uning koʻrinishi 50 m dan kam boʻlsa, bunday hollarda «Aylanma harakatlanish bilan kesishuv» ogohlantiruvchi belgisi oʻrnatiladi..



**7.5.4., 7.5.5., 7.5.6., 7.5.7. «Amal qilish vaqti»** (qoʻshimcha axborot belgilari) asosiy belgilarning qachon, soat nechadan nechagacha, qaysi kunlarda amal qilishi toʻgʻrisida axborot beradi.



**2.1. «Asosiy yoʻl»** (imtiyoz belgisi) boshqarilmaydigan chorrahalarini kesib oʻtishda ustunlik huquqini beruvchi yoʻllarning boshiga oʻrnatiladi. Ushbu belgi chorrahalar oldida ham takrorlanishi mumkin.

Kesishadigan yoʻllardagi chorrahalaridan oldin «Yoʻl bering» yoki «Toʻxtamasdan harakatlanish taqiqlanadi» imtiyoz belgilari oʻrnatiladi. Agar chorrahadan keyin asosiy yoʻlning yoʻnalishi oʻzgarsa (burilsa), «Asosiy yoʻl», «Yoʻl bering», «Toʻxtamasdan harakatlanish taqiqlanadi» belgilaridan biri ostiga 7.13. «Asosiy yoʻlning yoʻnalishi» qoʻshimcha axborot belgisi ilova sifatida osib qoʻyiladi.

**Asosiy yoʻl** – har xil qoplamali (tuproqli emas), shu bilan birga, «Asosiy yoʻl», «Ikkinchi darajali yoʻl bilan kesishuv», «Avtomagistral» belgilaridan biri oʻrnatilgan yoʻl. Ikkinchi darajali yoʻlning chorrahaga tutash qismining 50 m masofagacha

qoplamali bo'lishi uni asosiy yo'l maqomi bilan tenglashtirmaydi. Bunday qoplamalar aksariyat hollarda asosiy yo'llarni loy bilan ifloslanishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida ishlatiladi.



**7.13. «Asosiy yo'lning yo'nalishi»** (qo'shimcha axborot belgisi) chorrahada asosiy yo'lning yo'nalishi o'zgargan hollarda «Asosiy yo'l», «Yo'l bering», «To'xtamasdan harakatlanish taqiqlanadi» imtiyoz belgilari bilan birga qo'llaniladi. Unda chorraha bilan birga asosiy yo'lning yo'nalishi (farqli ravishda) aks ettiriladi. Asosiy yo'lda turgan haydovchilar teng ahamiyatli yo'llarning chorrahalaridan «Xalaqit o'ng tomondan» qoidasiga rioya qilib o'tadilar. Bu qoida «Ikkinchi darajali yo'l bilan kesishuv» imtiyoz belgisi mavjud bo'lgan yo'lda turgan haydovchilarga ham taalluqli bo'ladi.

Imtiyoz belgilari yo'ldagi harakatlanish bo'lagining cheti yoki trotuar ustiga o'rnatilsa, «Asosiy yo'lning yo'nalishi» (qo'shimcha axborot belgisi) yuqoridagi belgilarning yoniga osib qo'yiladi.



**2.2. «Asosiy yo'lning oxiri»** (imtiyoz belgisi) boshqarilmaydigan chorralardan o'tish imtiyozi berilgan asosiy yo'lning tugaganini ko'rsatadi. Odatda, bu belgi bilan birga «Yo'l bering» yoki «To'xtamasdan harakatlanish taqiqlanadi» imtiyoz belgilaridan biri o'rnatiladi.

**Axborot-ishora belgilari (5.1.–5.40.)** to'g'ri to'rtburchak shaklda bo'lib, ko'pincha, ularning asosi havorangli bo'ladi. Bunday belgilar harakatlanish xususiyatlari yoki yo'lda aholi yashaydigan joylar va boshqa inshootlarning borligi to'g'risida haydovchini xabardor etadi. Harakat yo'nalishini oldindan ko'rsatuvchi belgilar rangli, kodlashtirilgan bo'ladi. Yashil – avtomagistral, havorang – shahar tashqarisidagi va oq – shahar ichkarisidagi yo'l, sariq rang – aylanib o'tish joyi. Ammo bir belgida har xil ranglar uyg'unlashgan bo'lishi ham mumkin.

Oq rangli belgida avtomagistral orqali o'tiladigan aholi turar joyi va boshqa obyektlarning nomlari ko'k rang bilan ajratib yoziladi. Aks holda (ya'ni avtomagistral orqali o'tilmaydigan bo'lsa), havorang harflar bilan ajratib yoziladi.

**Aholi yashaydigan joy** – boshlanishi va oxirida «Aholi yashaydigan joyning boshlanishi» va «Aholi yashaydigan joyning oxiri» axborot-ishora belgilari bilan belgilangan va binolar qurilgan hudud.



**5.22., 5.24. «Aholi yashaydigan joyning boshlanishi»** (axborot-ishora belgisi) aholi

yashaydigan joyning nomi va ushbu hududning boshlanishini bildiradi. Agar mazkur belgi oq rangli bo'lsa, shaharlarda joriy etiladigan qoidalarga (tezlikni soatiga 70 km dan oshirmaslik, ovozli signallarni ishlatmaslik kabilarga) rioya etish talab qilinadi. Havorang belgi bilan aks ettirilganda esa signal berish taqiqlanmaydi va hudud faqat jug'rofiy axborot ahamiyatiga ega bo'ladi. Bunday belgilar mavjud bo'lmagan va aholi yashamaydigan joylarda quyidagilarga amal qilish lozim:

– yengil mashinalar va to'la vazni 3,5 t dan oshmaydigan yuk avtomobillariga tezlikni soatiga 100 km dan oshirmaslik;

– shaharlararo qatnaydigan avtobuslar va mikroavtobuslarga tezlikni soatiga 90 km dan oshirmaslik;

– boshqa avtobuslar, tirkamali yengil avtomobillar, mototsikllar, ruxsat etilgan vazni 3,5 t dan ortiq bo'lgan yuk avtomobillariga tezlikni soatiga 80 km dan oshirmaslik;

– tirkamali yuk avtomobillariga tezlikni soatiga 70 km dan oshirmaslik



**5.23., 5.25. «Aholi yashaydigan joyning oxiri»** (axborot-ishora belgisi) aholi yashaydigan joylarda

harakatlanishni tartibga soluvchi talablar va aholi yashaydigan joyning tugaganini bildiradi.

## B

**Buyuruvchi belgilar (4.1.1.–4.8.)** – transport vositalariga ko'rsatilgan yo'nalishda yoki faqat ma'lum yo'nalishlarda harakatlanishlari lozimligini buyuruvchi yo'l belgilari.

**Buyuruvchi yettita belgi** – faqat belgilangan yo'nalishli transport vositalarining haydovchilariga (istisno tariqasida) taalluqli bo'lmagan belgilar. Ularga quyidagi buyuruvchi belgilar kiradi: «Harakatlanish to'g'riga», «Harakatlanish o'ngga», «Harakatlanish chapga», «Harakatlanish to'g'riga yoki o'ngga», «Harakatlanish to'g'riga yoki chapga», «Harakatlanish o'ngga yoki chapga», «Yengil avtomobillar harakatlanadi».





**3.31. «Barcha cheklovlarning oxiri»** (taqiqlovchi belgi) garchi nomida «barcha» soʻzi boʻlsa-da, faqatgina quyidagi belgilardagi cheklashlarni bekor qiladi: «Eng kam oraliq», «Quvib oʻtish taqiqlanadi», «Yuk avtomobillarida quvib oʻtish taqiqlanadi», «Yuqori tezlik cheklanadi», «Toʻxtash taqiqlanadi», «Toʻxtab turish taqiqlanadi», «Oyning juft kunlarida toʻxtab turish taqiqlanadi». Mazkur belgi yuqoridagi taqiqlovchi belgilarning odatdagi eng yaqin chorrahagacha taʼsir etish hududini kamaytirish maqsadida oʻrnatiladi. Agar yoʻlning bir qismida quvib oʻtish va toʻxtab turishning taqiqlanishi joriy etilgan boʻlsa, taʼriflanayotgan belgi har ikkala cheklashni ham bekor qiladi.

**Belgilangan yoʻnalishli transport vositalari** – belgilangan yoʻnalishda harakat qiluvchi avtobuslar, trolleybuslar, tramvaylar va taksilar. Ular koʻplab yoʻl belgilarini, jumladan buyuruvchi yettita belgi va taqiqlovchi yettita belgi talablarini chetlab oʻtishlari mumkin. Bu imtiyozlar ularga «Belgilangan yoʻnalishli transport vositalari» ekanligi uchun emas, balki belgilangan yoʻnalish boʻyicha harakat qilishlari sababli beriladi.



**5.10.1. «Belgilangan yoʻnalishli transport vositalari uchun boʻlagi bor yoʻl»** (axborot-ishora belgisi) bir tomonlama harakatlanish yoʻlining chetki chap boʻlagi uzluksiz chiziq bilan belgilangan yoʻnalishli transport vositalariga ajratilgani haqida axborot beradi. Mazkur boʻlakka boshqa transport vositalarining kirishi taqiqlanadi va unda harakatlanayotgan belgilangan yoʻnalishli transport vositalari kunning yorugʻ paytida ham (yoʻl-transport hodisalarining oldini olish maqsadida) yaqinni yorituvchi chiroqlarini yoqib yurishlari lozim. Bu belgi chorradan keyin boshlanadigan shunday xususiyatli yoʻlning boshlanishiga oʻrnatiladi.



**5.10.4. «Belgilangan yoʻnalishli transport vositalari uchun boʻlagi bor yoʻlning oxiri»** (axborot-ishora belgisi) 5.10.1. belgisida koʻrsatilgan talablarga chek qoʻyadi.



**5.10.2., 5.10.3. «Belgilangan yoʻnalishli transport vositalari uchun boʻlagi bor yoʻlga chiqish»** (axborot-ishora belgisi) kesishadigan yoʻlda transportlarning umumiy oqimi

ro‘parasidan belgilangan yo‘nalishli transport vositalarining bir tomonlama harakatlanishi uchun uzluksiz chiziq bilan ajratilgan bo‘lak borligidan haydovchini xabardor qiladi. Ushbu belgi bunday toifadagi yo‘llar boshlanadigan joylarning yon tomoniga o‘rnatiladi. Bu belgi ham «Bir tomonlama harakatlanish yo‘liga chiqish» belgisi ruxsat bergan yo‘nalishda harakatlanish imkonini beradi.



**5.9. «Belgilangan yo‘nalishli transport vositalari uchun mo‘ljallangan bo‘lak»** (axborot-ishora belgisi) umumiy yo‘nalish (yo‘l)da harakatlanadigan yo‘nalishli transport vositalari uchun mo‘ljallangan bo‘lakning mavjudligini bildiradi. Mazkur belgi qaysi bo‘lakning ustiga o‘rnatilgan bo‘lsa, shu bo‘lakka tatbiq etiladi. Agar ushbu bo‘lak sidirg‘a chiziq bilan ajratilgan bo‘lsa, boshqa transport vositalarining bu bo‘lakda harakat qilishi, to‘xtashi va to‘xtab turishi taqiqlanadi. Aks holda (ya‘ni mazkur bo‘lak uzuq-uzuq chiziq bilan ajratilgan bo‘lsa), boshqa transport vositalarining unda harakatlanishi taqiqlanadi, lekin ularga, istisno tariqasida, o‘nga burilish (yo‘lovchilarni tushirish-chiqarish) maqsadida qisqagina to‘xtash uchun bo‘lakka kirishga ruxsat etiladi. Bunday bo‘laklarning mavjudligi belgilangan yo‘nalishli transport vositalarining haydovchilari uchun (ayniqsa, tig‘iz vaqtlarda bekatga kirish va undan chiqishda) ancha qulay.



**1.3.1. «Bir izli temir yo‘l»** (ogohlantiruvchi belgi) shlagbaum o‘rnatilmagan bir izli temir yo‘ldan o‘tish joyini bildiradi. Ushbu belgi temir yo‘lning birinchi iziga 20 m dan kam bo‘lmagan masofa qolganda, agar ikkita qizil rangli, galma-gal yonib-o‘chadigan svetofor mavjud bo‘lsa, ular bilan bir ustunda o‘rnatiladi.



**5.5. «Bir tomonlama harakatlanish yo‘li»** (axborot-ishora belgisi) yo‘lning harakatlanish qismida barcha transport vositalarining bir tomonga harakat qilishini bildiradi. Mazkur belgi to‘g‘riga, o‘ngga, chapga harakat qilish mumkinligini anglatadi, ammo qayrilishni taqiqlaydi. U chorraha oldiga yoki shunday harakatlanish zarurati bo‘lgan ko‘chaning boshiga o‘rnatiladi. Istisno tariqasida, shaharlardagi bir tomonlama harakatlanishni talab qiladigan yo‘llarda chap tomonda to‘xtash va to‘xtab turishga ruxsat etiladi.



### 5.7.1., 5.7.2. «Bir tomonlama harakatlanish yo‘liga chiqish»

(axborot-ishora belgisi) gorizontaal cho‘zinchoq to‘rtburchak havorang belgining o‘rtasida o‘ng yoki chap tomonga yo‘naltirilgan oq rangli

ko‘rsatkichdan iborat. Belgi chorraha oldiga o‘rnatiladi. U haydovchilarni ko‘rsatkich qaratilgan tomonga kesib o‘tiladigan yo‘lda bir tomonlama harakat yo‘li joriy etilganligi haqida xabardor etadi. Bunday yo‘lni kesib o‘tish (to‘g‘riga o‘tish), shuningdek ko‘rsatkich yo‘nalishida harakatlanish va qayrilish mumkin.



### 5.6. «Bir tomonlama harakatlanish yo‘lining oxiri»

(axborot-ishora belgisi) bir tomonlama harakatlanish yo‘li (yoki bo‘lagi)ning tugaganini bildiradi. Mazkur belgi haydovchilarni belgi o‘rnatilgan

chorrahadan keyin ro‘paradan harakat qilish yo‘lining boshlanishini e‘tiborga olishga va ehtiyotkorlikka chorlaydi. Ushbu belgi «Manzilgacha bo‘lgan masofa» qo‘shimcha axborot belgisi bilan birga qo‘llanilishi ham mumkin.



### 3.17.1. «Bojxona»

(taqiqlovchi belgi) bojxona (tekshiruv maskani) oldida to‘xtamasdan o‘tishni taqiqlaydi. Mazkur belgidagi «Bojxona» so‘zi tegishli davlat tilida yoziladi.

### 1.21. «Bolalar»

(ogohlantiruvchi belgi) yo‘lining qatnov qismida (maktab, kinoteatr, bolalar oromgohi kabilar joylashgan yo‘lda)



bolalarning to‘satdan paydo bo‘lishi ehtimoli mavjudligi to‘g‘risida ogohlantiradi. Bunday yo‘llarda haydovchi kutilmaganda transport

vositasini to‘xtatishga tayyor bo‘lishi kerak va bolalarni urib ketmaslikni ta‘minlashi shart. Ushbu belgi takrorlanuvchi belgilar turkumiga kiradi.



### 5.34.1., 5.34.2. «Boshqa qatnov qismiga qayta tizilishning

boshlang‘ich ko‘rsatkichi» (axborot-ishora belgisi) sariq

rangda tasvirlanadi va ajratuvchi qismga ega bo‘lgan yo‘lining harakatlanish uchun yopiq hududini aylanib o‘tish yoki qatnov

qismining o‘ng tomoniga qaytish uchun harakatlanish yo‘nalishini aks ettiradi. Bu belgidan vaqtincha foydalaniladi. U yirik sport musobaqalari, ko‘cha sayillari,

bayram namoyishlari o‘tkazilayotganda o‘rnatiladi.



### 1.30. «Boshqa xavf-xatarlar»

(ogohlantiruvchi belgi) ogohlantiruvchi belgilarning barchasi qamrab olmagan (ya‘ni boshqa

ogohlantiruvchi belgilar aks ettirmagan) xavf-xatarlardan ogohlantiradi. Masalan, to'siqlar bilan ifodalanmagan tik jarliklar, tuman tez-tez tushadigan yoki tutun bilan qoplanadigan joylar shular jumlasidandir. Bunday hollarda ushbu belgi ostiga «Jarlik», «Tuman», «Tutun» degan yozuvlardan tegishlisi ilova qilinadi. Mazkur belgi o'rnatilgan yo'lda (sharoitga qaragan holda) barcha haydovchilar tuman tushgan bo'lsa, tezlikni kamaytirib, tumanga qarshi yoki yaqinni yorituvchi chiroqlarni yoqishlari, jarlik bor joylarda esa ro'paradan kelayotgan boshqa transportlarning oldidan o'tishda ehtiyot bo'lishlari lozim.



**1.31.1., 1.31.2., 1.31.3. «Burilishning yo'nalishi»** (ogohlantiruvchi belgi) uchta ko'rinishga ega: «o'ngga», «chapga», «o'ngga va chapga». Mazkur belgi keskin burilashlardagi ko'rinmas joylar va ularning xususiyatlari to'g'risida haydovchilarni ogohlantiradi. Yuqoridagilardan

tashqari, belgi yo'lining ta'mirlanayotgan qismini aylanib o'tishni ham bildiradi.



**5.8.2. «Bo'lak bo'yicha harakatlanish yo'nalishi»** (axborot-ishora belgisi) chorrahaga

50-150 m qolganda va chorrahadagi har bir bo'lak tepasiga o'rnatiladi. Bu belgi bo'lak bo'yicha ruxsat etilgan harakatlanish yo'nalishini anglatadi.



**5.8.1. «Bo'laklar bo'yicha harakatlanish yo'nalishi»** (axborot-ishora belgisi) bevosita chorraha oldiga o'rnatiladi. U bo'laklarning miqdori va har bir bo'lakdagi harakat yo'nalishini bildiradi. Chekka chap bo'lakdan ruxsat etilgan chapga burilish ishorasi, ayni vaqtda, qayrilishga ham ruxsat beradi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, bitta belgida uchdan ortiq bo'lak tasvirlanmaydi. Agar harakatlanish bo'laklari ko'p bo'lsa, yo'lga ikkinchi belgi o'rnatiladi.



**5.8.7. «Bo'laklar bo'yicha harakatlanish yo'nalishi»** (axborot-ishora belgisi) uch bo'lakli yo'llarga o'rnatish uchun mo'ljallangan bo'lib, uning o'ng tomonidagi ikki bo'lagidan bir

tarafga, chap tomondan esa qarama-qarshi yoʻnalishga harakatlaniladi. Agar oʻrta boʻlakda birorta transport vositasining harakatlanishini taqiqlovchi belgi oʻrnatilgan boʻlsa, unda bu transport vositasining tegishli boʻlakda harakatlanishi taqiqlanadi.



**5.8.8. «Boʻlaklar boʻyicha harakatlanish yoʻnalishi»**

(axborot-ishora belgisi) uch boʻlakli yoʻllarga oʻrnatiladi va chap tomondagi ikki boʻlakdan bir tomonga, oʻng boʻlakdan

esa ularga teskari tomonga harakatlanishni bildiradi.



**5.8.6. «Boʻlakning oxiri»** (axborot-ishora belgisi) koʻp boʻlakli

yoʻllarda chekka chap boʻlakning tugaganini bildirish uchun qoʻllaniladi (masalan, nishablik yoʻllarda roʻparadan balandlikka koʻtarilayotgan

transport vositalariga yoʻl hozirlash uchun qoʻshiladigan yoʻl boʻlagi). Bunday belgini koʻrgan haydovchi oʻng tomondagi boʻlakka oʻtishi, boshqa boʻlaklarda toʻgʻriga harakat qilayotgan haydovchilarga yoʻlni boʻshatishi lozim.



**5.8.4. «Boʻlakning boshlanishi»** (axborot-ishora belgisi) uch

boʻlakli yoʻllarda harakatlanish uchun oʻrta boʻlakning boshlanishini bildiradi.



**5.8.5. «Boʻlakning oxiri»** (axborot-ishora belgisi) balandlikka

koʻtarilish yoki toʻxtash qismidagi qoʻshimcha boʻlakning oxirida yoki boʻlak oxiriga 50 m qolganda oʻrnatilishi mumkin.



**5.8.3. «Boʻlakning boshlanishi»** (axborot-ishora belgisi)

balandlikka koʻtarilish yoki toʻxtash (tormozlanish) boʻlagini bildirish maqsadida qoʻshimcha harakatlanish boʻlagining

boshiga qoʻyiladi. Ushbu belgi oʻrnatilgan joylarda tepalikka harakat qilayotgan transport vositalarining haydovchilari boshqa transport vositalarining harakatiga xalaqit bermaslik maqsadida oʻng tomondagi qoʻshimcha boʻlakka oʻtishlari lozim. Tormozlanish boʻlagiga esa chorrahadan oʻng tomonga buriladigan transport vositalarining haydovchilari oʻtadilar.

**V**



**3.11. «Vazn cheklangan»** (taqiqlovchi belgi) umumiy ogʻirligi belgida koʻrsatilganidan ogʻir boʻlgan, jumladan transport

vositalarining harakat qilishini taqiqlaydi. Ushbu belgi og'irlik ko'tarish cheklangan ko'priklar, estakadalar, yo'l-ko'priklar oldiga o'rnatiladi. Ammo mazkur belgi, odatda, yirik shaharlar (poytaxt)dagi ko'priklar oldiga o'rnatilmaydi, chunki bunday ko'priklar amalda uchraydigan yuklardan bir necha barobar og'ir bo'lgan yuklarni ham ko'tara oladi. Umumiy og'irligi belgida ko'rsatilganidan og'ir bo'lgan, jumladan, tirkamali (yoki yarim tirkamali) transport vositalarining doimiy vazni yuk ortilishidan qat'iy nazar tarozida o'lchanadi va bunda transport vositasi hamda tirkamaning aniq yuklangan holati hisobga olinadi. Avtopoyezd tarkibidagi barcha tirkamalar vaznining yig'indisi bu belgi oldida hisoblanadi.

**Velosiped** – odam kuchi bilan harakatlantiriladigan ikki yoki undan ortiq g'ildirakli transport vositasi (aravachasidan tashqari).



**4.5. «Velosiped yo'lkasi»** (buyuruvchi belgi) faqat velosiped yoki mopedlarning harakatlanishiga ruxsat beradi, lekin piyodalar uchun mo'ljallangan trotuar mavjud bo'lmasa velosiped yo'lkasida piyodalar ham harakatlanishlari mumkin.



**1.22. «Velosiped yo'lkasi bilan kesishuv»** (ogohlantiruvchi belgi) chorrahadan tashqarida velosiped yo'lkasi bilan ko'channing harakatlanish bo'lagi kesishgan joy oldiga o'rnatiladi. Piyodalar o'tish joyidan farqli o'laroq, bu kesishuvda velosipedlar emas, boshqa haydovchilar imtiyozga ega bo'ladilar. Mazkur belgi tezlikni kamaytirib, diqqat-e'tiborni oshirishni talab etadi. Shuni e'tiborga olish kerakki, YHQ (yo'l harakati qoidalari)da 13 yoshga to'lgan o'smirlarning gavjum ko'chalarda velosipedda yurishlariga ruxsat etiladi.



**3.9. «Velosipedda harakatlanish taqiqlangan»** (taqiqlovchi belgi) velosipedda va mopedda harakatlanishni taqiqlaydi. Bunday taqiqlovchi belgi umumfoydalanadigan transport bekatlari, harakat gavjum bo'lgan yo'llar, istirohat bog'larining hiyobonlari va dam olish joylarida joriy etiladi. Ushbu belgi velosiped yoki mopedni qo'lda yetaklab, piyodalarning yo'lkalarida va yo'lning o'ng tomoni chetida yurishni taqiqlamaydi. Ammo u velosiped va mopedni (boshqa transport vositalaridan farqli o'laroq) qo'lda yetaklab

yurish imkoniyati mavjudligi sababli, shu hududda yashaydigan va ishlaydiganlarning ham ushbu transport vositalarida harakatlanishlarini taqiqlaydi.

## D



**6.11. «Dam olish joyi»** (servis belgisi) haydovchilar va yo‘lovchilar dam oladigan maydonchani ko‘rsatadi. Maydonchada ayvonlar, bo‘lmalar, o‘rindiqlar mavjud bo‘ladi. Agar unda mashinani ko‘rikdan o‘tkazish estakadasi mavjud bo‘lsa, mazkur belgining ostiga «Avtomobillarni ko‘rikdan o‘tkazish joyi» qo‘shimcha axborot belgisi ilova qilinadi.



**6.12. «YPX maskani»** (servis belgisi) yo‘lda yo‘l-patrul xizmati (YPX) xodimlaridan iborat bo‘lgan nazoratchilar maskani borligini ko‘rsatadi. Ushbu belgi mazkur xizmat xodimlari tomonidan transportni to‘xtatish ehtimoli borligini nazarda tutib, tezlikni kamaytirishni tavsiya etadi. Maskan, odatda, zarur aloqa vositalari, jumladan radiostansiya bilan ham jihozlangan bo‘ladi. YPX navbatchi xodimi zarur bo‘lganda, shifoxona bilan bog‘lanishi, u yoki bu aholi manziliga qanday borishni tushuntirishi mumkin.

## YE



**4.4. «Yengil avtomobillar harakatlanadi»** (buyuruvchi belgi) deyarli barcha avtomobillarning, jumladan yengil mashinalar, to‘la vazni 3,5 t dan oshmaydigan yuk avtomobillari, belgilangan yo‘nalishli transport vositalari va belgi ortidan bir daha uzoqlikda yashaydigan yoki ishlaydiganlarga tegishli bo‘lgan yoxud shu hududda joylashgan korxonalariga xizmat ko‘rsatuvchi transport vositalarining harakatlanishiga ruxsat beradi. Biroq to‘la vazni 3,5 t dan ortiq bo‘lgan yuk mashinalari, traktorlar, ot-aravalar, velosiped va mopedlarning (agar ularning egasi bu yerda yashamasa va shu hududda joylashgan korxonaga hamda muassasalarga xizmat ko‘rsatmasa) harakatlanishi taqiqlanadi. Bu belgi yordamida shahar markazidagi gavjum ko‘chalar harakatlanishga xalaqit beradigan va sekin yuradigan transport vositalaridan holi qilinadi.

**Yetarli ko‘rinmaslik** – tuman tushishi, qattiq shamol yoki dovul bo‘lishi, chang-to‘zon ko‘tarilishi, qor yoki yomg‘ir yog‘ishi tufayli yoxud shunga o‘xshash

sharoitlarda, shuningdek kunning g'ira-shira vaqtida obyekt ko'rinishining 300 m dan kam bo'lgan holati.

## YO



**1.25. «Yovvoyi hayvonlar»** (ogohlantiruvchi belgi) yo'lining qatnov qismida yovvoyi hayvonlar paydo bo'lishi mumkin bo'lgan joylar mavjudligi to'g'risida haydovchilarni ogohlantiradi. Bunday belgi qo'riqxonalar, ovchilik xo'jaligi va o'rmonzorlar hududiga o'rnatiladi. Ma'lumki, yovvoyi hayvonlar bilan to'qnashuv fojiali oqibatlarga olib keladi. Shuning uchun mazkur belgi amal qiladigan hududda transport vositasini darhol to'xtatish mumkin bo'lgan tezlikda *ҳайдаш лозим*.

*Yondosh hudud* – bevosita yo'lga tutash va transport vositalari o'tib ketishi uchun mo'ljallangan hudud (korxonalar, tashkilot, hovli, turar joy dahasi, avtomobillarning to'xtab turish joyi, avtomobillarga yoqilg'i quyish shahobchasi va hokazolar).



**1.27. «Yonlanma shamol»** (ogohlantiruvchi belgi) kuchli yonlama shamol esishi to'g'risida ogohlantiradi. Ushbu belgi tog' daralari, suv ombori yonidan o'tish yo'llari, katta ko'priklar yaqinidagi yo'llarga yoxud kuchli shamol oqimi avtomobilning to'g'ri yurishiga xalaqit beradigan joylarga o'rnatiladi. Yondan kuchli shamol esganda haydovchi tezlikni kamaytirib, rulni burish hisobiga avtomobilning yo'nalishini o'z vaqtida to'g'rilab olishi lozim. Bunday shamol muz qoplagan yo'lda harakatlanishni yanada qiyinlashtiradi. Shu bilan birga, u ikki g'ildirakli transport vositalari uchun juda xavfli sanaladi.



**6.3. «Yonilg'i shahobchasi»** (servis belgisi) – avtomobillarga yoqilg'i (benzin, dizel, gaz kabi yonilg'ilar, shuningdek moy, suv hokazolar) quyish joyini ko'rsatadi. Ushbu belgining havorang (pastki) qismida shahobchagacha bo'lgan masofa aks ettiriladi.

## I

*Ikki tomonlama harakatlanish* – transport vositalarining bir-biriga ro'parama-ro'para harakatlanib, chap (bort) tomonlari bilan bir-birining yonidan o'tishi.





**1.19. «Ikki tomonlama harakatlanish»** (ogohlantiruvchi belgi) yo‘lining bir tomonlama harakatlanish qismining ikki tomonlama harakatlanish yo‘liga qo‘shilishi haqida ogohlantiradi. Odatda, mazkur belgi yo‘lining harakatlaniladigan bir tomoni ta‘mirlayotganligi sababli o‘rnatiladi. U haydovchining chekka o‘ng tomondan harakatlanib, ro‘paradan keladigan transport vositalaridan ehtiyot bo‘lishi lozimligini bildiradi. Ushbu belgi o‘rnatilgan joyda transport vositalarining qayrilishi mumkinmi, degan savolga ko‘p haydovchilar, afsuski, tasdiq javobini beradilar. Biroq tajribali haydovchilar mazkur belgi ikki tomonlama harakatlanish joyidan eng kamida 50 m oldinda o‘rnatilganligi va belgi turgan joyda bir tomonlama harakatlanish joriy etilganligi sababli qayrilish mumkin emasligini yaxshi biladilar.



**2.3.1. «Ikkinchi darajali yo‘l bilan kesishuv»** (imtiyoz belgisi) asosiy yo‘lining ikkinchi darajali yo‘l bilan kesishgan joyiga o‘rnatiladi. Mazkur belgi haydovchiga yo‘ldan o‘tish imtiyozini beradi (belgida asosiy yo‘l yo‘g‘on, ikkinchi darajali yo‘l esa ingichka chiziq bilan tasvirlangan). Ba‘zi haydovchilar uni «bombacha» deb ataydilar. Ushbu imtiyoz belgisi shahar ichida chorrahaga 50–100 m, shahar tashqarisida esa 150–300 m qolganda o‘rnatiladi.



**2.3.2., 2.3.3. «Ikkinchi darajali yo‘lining tutashuvi»** (imtiyoz belgisi) ikkinchi darajali yo‘lining asosiy yo‘l bilan kesishuvini emas, balki (chapdan yoki o‘ngdan) tutashuvini bildiradi. Ushbu belgi shahar ichida ikkinchi darajali yo‘lining asosiy yo‘lga tutashgan joyiga 50–100 m, shahar tashqarisida esa 150–300 m qolganda o‘rnatiladi.

**Imtiyoz** – harakatning boshqa ishtirokchilariga qaraganda ma‘lum yo‘nalishda oldin harakatlanish huquqi.

**Imtiyoz belgilari (2.1.–2.7.)** – chorrahalarda, alohida joylashgan qatnov qismlari kesishgan joylarda, shuningdek yo‘lining tor qismida yo‘l harakati qatnashchilarining harakatlanish navbatini belgilash uchun qo‘llaniladigan belgilar. Imtiyoz belgilari bevosita chorraha yoki yo‘lining toraygan bo‘lagi oldiga o‘rnatiladi. Agar boshqariladigan chorrahada svetofor ishlamas yoki sariq chiroq muntazam yonib-o‘chib tursa, bunday hollarda haydovchi imtiyoz belgilaridan foydalanadi.



**6.8. «Ichimlik suv»** (servis belgisi) belgida suv quvuri jo‘mrangi tasvirlanganligiga qaramay, tabiiy ichimlik suv manbai (buloq, jilg‘a, ko‘l, quduq kabilar) mavjudligini bildiradi.



**7.5.2. «Ish kunlari»** (qo‘shimcha axborot belgisi) asosiy belgining amal qiladigan hafta kunlarini bildiradi.

## Y



**5.29.1., 5.29.2. «Yo‘l raqami»** (axborot-ishora belgisi)



– yo‘lga tartib raqami berilganligini va raqamlangan yo‘lning yo‘nalishini bildiradi. Yo‘nalishlarning

avtomobil yo‘llari xartidasida aks ettirilishi haydovchilarga kerakli yo‘llarni topishda asqatadi. 5.29.1. belgi ko‘k yoki yashil rangli bo‘lishi mumkin. Yashil rangli belgidagi «YE» harfi yo‘lning Yevropa magistrallariga kirishini, yo‘nalishning yo‘l raqami esa uning umumdavlat ahamiyatiga ega ekanligini bildiradi. Mazkur belgi yo‘l boshiga o‘rnatiladi va har 15–20 *km* da takrorlanadi. 5.29.2. belgi esa chorrhalar oldida takrorlanadi.

**Yo‘l** – transport vositalari qatnovi uchun qurilgan yoki moslashtirilgan va xuddi shu maqsadda foydalaniladigan yer mintaqasi yoxud sun‘iy inshoot yuzasi. U avtomobil va shahar elektr transporti yo‘llari, shuningdek shahar, shaharcha va qishloq, aholi punktlarining ko‘chalari va yo‘lkalarini o‘z ichiga oladi.



**2.4. «Yo‘l bering!»** (imtiyoz belgisi) – haydovchi kesib o‘tilayotgan

yo‘ldan va 7.13. «Asosiy yo‘lning yo‘nalishi» qo‘shimcha axborot

belgisi bo‘lganda esa asosiy yo‘ldan kelayotgan transport vositasiga

yo‘l berishi kerak. Shahar ichida mazkur belgi bevosita chorraha oldiga, shahar tashqarisida esa chorrahaga 150-300 *m* qolganda o‘rnatiladi.



**1.18.1., 1.18.2., 1.18.3. «Yo‘lning torayishi»**

(ogohlantiruvchi belgi) yo‘lning harakatlanish

bo‘lagi bir tomonga yoki har ikkala tomonga

toraygan joy oldiga o‘rnatiladi. Ushbu belgining uch xil ko‘rinishda bo‘lishi

haydovchiga imkon qadar ko‘proq (har ikkala tomondan, faqat chapdan yoki faqat

o‘ngdan yo‘lning torayishi haqida) axborot beradi.

*Yo'l harakati qatnashchisi* – yo'l harakati jarayonida transport vositasining haydovchisi, transport vositasida ketayotgan yo'lovchi yoki yo'lda harakatlanayotgan piyoda tariqasida bevosita ishtirok etayotgan shaxs.

*Yo'l-transport hodisasi (YTH)* – transport vositasining yo'ldagi qatnovi jarayonida sodir bo'lib, fuqarolarning o'limi yoki ularning sog'lig'iga zarar yetkazilishiga, transport vositalari, inshootlar, yuklarning shikastlanishiga yoki boshqa tarzda moddiy zarar yetkazilishiga sabab bo'lgan hodisa.

YTHning ortishiga, aksariyat hollarda, transport vositalari miqdori va kasbiy tayyorgarligi darajasi past bo'lgan, transport vositasini boshqarishni endi o'rganayotgan haydovchilar sonining ko'payishi, yo'l qurilishi ishlarining avtomobil ishlab chiqarish sur'atlaridan orqada qolishi, yo'llarda harakatlanish ishtirokchilarining intizomga rioya qilmasliklari kabilar sabab bo'ladi.

YTHni quyidagi toifalarga ajratish (klassifikatsiya qilish) mumkin: harakatlanayotgan transport vositalarining o'zaro to'qnashuvi, turg'unlikni yo'qotib ag'darilishi, to'xtab turgan transport vositasi yoki ot-aravaga yoxud to'siqqa (qo'zg'almas jismga) urilishi, piyodani, velosiped haydovchisini yoki jonivorlarni bosib ketishi, yo'lovchilarning yiqilishi va boshqa hodisalar (yuklarning tushib ketishi va hokazo) YTH haydovchilarning aybi bilan (35%), piyodalarning aybi bilan (30%), transport vositalarining nosozligi natijasida (25%), yo'l holatining qoniqarsizligi oqibatida (10%) sodir bo'lishi mumkin.

*Yo'l harakati* – odamlar va yuklarning transport vositalari yordamida yoki bunday vositalarsiz yo'llarda harakatlanishi jarayonida yuzaga keluvchi munosabatlar majmui.

*Yo'l harakatini tashkil etish* – yo'llarda harakatni boshqarish bo'yicha huquqiy, tashkiliy-texnikaviy tadbirlar va boshqaruv harakatlari majmui.

*Yo'l harakati xavfsizligi* – yo'l harakati qatnashchilarining yo'l-transport hodisalari va ularning oqibatlaridan himoyalanganlik darajasini aks ettiruvchi yo'l harakati holati.

*Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash* – yo'l-transport hodisalari yuzaga kelishi sabablarining oldini olishga va oqibatlarining og'irligini yengillatishga qaratilgan faoliyat.

*Yo'lovchi* – transport vositasida ketayotgan (haydovchidan tashqari) shaxs.



**5.20.2. «Yo'nalishlarning dastlabki ko'rsatkichi»** (axborot-ishora belgisi) biror-bir inshootga yoki aholi yashaydigan joy tomonga harakatlanish yo'nalishini ko'rsatadi. Ushbu belgi shahar tashqarisidagi yo'llarda tegishli joyga 300 m yetmasdan, shahar ichida esa 50 m qolganda o'rnatiladi (bu masofa belgining ostki qismida yozilgan bo'ladi). Mazkur belgidagi yashil – avtomagistralni, ko'k – shahar tashqarisidagi yo'lni, oq – shahardagi yo'l, sariq – aylanib o'tishni bildiradi. Unda yo'nalishning tartib raqami, avtomagistral, aeroport, ramziy sport piktogrammalari, harakatlanishga xos xususiyatlar haqida xabar beruvchi boshqa qo'shimcha belgilar ham aks ettirilishi mumkin.



**5.21.1. «Yo'nalish ko'rsatkichi»** (axborot-ishora belgisi) belgida ko'rsatilgan joyga burilish oldiga o'rnatiladi. Unda manzilgacha bo'lgan masofa (*km* hisobida) ko'rsatilishi, avtomagistral, aeroportlar, sport piktogrammalari tasvirlangan bo'lishi, rangli kodlash usuli qo'llanilishi mumkin.



**5.21.2. «Yo'nalishlar ko'rsatkichi»** (axborot-ishora belgisi) belgida ko'rsatilgan aholi yashaydigan joylar va manzillarga shu yo'nalishlar orqali borilishini bildiradi.

## K



**6.10. «Kemping»** (servis belgisi) avtomotosayyohlar oromgohi joylashgan yerni ko'rsatadi.



**5.28. «Kilometr belgisi»** (axborot-ishora belgisi) yo'lning har bir kilometri oxiriga o'rnatiladi. Raqamlar yo'lning boshlangan joyidan hisoblab ko'rsatiladi.



**3.1. «Kirish taqiqlanadi»** (taqiqlovchi belgi) yo'nalishli transportdan boshqa barcha transportlarning kirishini taqiqlaydi. Mazkur belgi transport vositalarining to'xtash joyi, dam olish maydonchalari, avtomobillarga yoqilg'i quyish shahobchalari va shu kabi boshqa joylarga alohida yo'llarni tashkil etish hamda bir tomonlama qatnovchi yo'llarda

ro'paradan harakatlanishlarning oldini olish maqsadida o'rnatiladi. Ushbu belgi ortidagi joyga faqat qarama-qarshi tomondan kirish mumkin. Belgi harakatlanish chizig'ining ma'lum qismiga kirishni taqiqlashi mumkin (yo'l qurilishi ishlari olib borilayotganda, quduqning og'zi ochiq bo'lsa). Bunday hollarda belgi «Harakatlanish bo'lgi» qo'shimcha axborot belgisi bilan birgalikda qo'llaniladi. Shuningdek, u «Manzilgacha bo'lgan masofa» qo'shimcha axborot belgisi bilan ham qo'llaniladi. Bunda qo'shimcha axborot belgisi haydovchilarni taqiqlovchi belgi o'rnatilgan joygacha bo'lgan masofa haqida ogohlantiradi. Belgilarning bunday majmuasi, ayniqsa, uzun o'lchamli transport vositalari haydovchilari uchun katta ahamiyatga ega. Shuningdek, mazkur taqiqlovchi belgi burilib chiqish qiyin bo'lgan tor ko'chalarga kirishdan ogohlantiradi.



### 7.15. «Ko'zi ojiz piyodalar» (qo'shimcha axborot belgisi)

«Piyodalar o'tish joyi» ogohlantiruvchi yoki axborot-ishora belgisi bilan birga qo'llaniladi va piyodalar o'tish joyidan asosan ko'zi ojizlarning foydalanishlarini bildiradi. Agar ko'zi ojizlar ishlaydigan fabrika yo'lining bir tarafida joylashgan bo'lib, ularning yashaydigan uy-joylari yo'lining boshqa tomonida bo'lsa, shunday belgi o'rnatilishi mumkin. Agar ular yo'lining bir tomonida joylashgan bo'lsa, bunday belgining o'rnatilishiga hojat qolmaydi.



### 1.3.2. «Ko'p izli temir yo'l» (ogohlantiruvchi belgi) shlagbaum bilan

jihozlanmagan ikkitali va undan ko'p izli temir yo'ldan o'tishni bildiradi. Mazkur ogohlantiruvchi belgi temir yo'lga 20 m dan kam bo'lmagan masofa qolganda o'rnatiladi. Bu yerda birin-ketin «lip-lip» yonib-o'chadigan qizil rangli svetofor ham o'rnatilishi mumkin. U kechasi va ko'rish cheklangan sharoitda katta ahamiyatga ega.



### 1.9. «Ko'tarma ko'prik» (ogohlantiruvchi belgi) yo'l to'satdan

uziladigan joylar (ko'tarma ko'prik, paromda suvdan o'tish joylari)ga o'rnatiladi. Ko'prik (parom) qo'shilgan joylarning notekisligini hisobga olib, ularning ustiga chiqayotganda tezlikni kamaytirish lozim. Ushbu belgi takrorlanuvchi belgilar qatoriga kiradi.

## M

**Majburiy to'xtash** – texnik nosozlik (avariya, sinish, moslamaning ishlamasligi) natijasida, signal yoki YPX xodimining talabiga ko'ra, tashilayotgan yuk xavf tug'dirganda, yo'llarda, sun'iy inshootlarda, temir yo'l kesishmalarida nosozlik paydo bo'lganda, haydovchi yoki yo'lovchining sog'ligi tufayli yoxud shu kabi boshqa majburiy to'xtatish holatlari yuzaga kelganda, ob-havo sharoitiga bog'liq hollarda transport vositasi harakatini to'xtatish.




7.1.1., 7.1.2., 7.1.3., 7.1.4.


«Manzilgacha birlan masofa»

(irshimcha axborot belgisi) ostiga belgida krrsatilgan manzil iancha masofadan keyin krrinishini bildiradi.

Mazkur belgi «Avtomagistral», «Avtomobillar uchun mo'ljallangan yo'l», «To'xtab turish joyi» belgilari ostiga o'rnatilishi mumkin va o'sha manzillarga burilish joyini ko'rsatadi. Bundan tashqari, u ogohlantiruvchi belgilar bilan birga qo'llanilishi ham mumkin. Agar belgidan xavfli joygacha bo'lgan masofa me'yoridan kam yoki ko'p bo'lsa yoxud belgi taqiqlovchi yoki buyuruvchi belgilar bilan qo'shib qo'llanilsa, ular haydovchini amal qilish joyi boshlanishidan ogohlantiradi.



**5.26. «Manzil nomi»** (axborot-ishora belgisi) haydovchiga manzil nomi, aholi yashash joylaridan farqli o'laroq, daryo, ko'l, dovon, diqqatga sazovor joylar va shu kabilar to'g'risida axborot beradi.



**5.27. «Masofalar ko'rsatkichi»** (axborot-ishora belgisi) harakatlanish yo'nalishida joylashgan aholi yashaydigan joylarga bo'lgan masofaning qancha qolganligini kilometr

hisobida aks ettiradi.

Mazkur belgida haydovchining harakatlanish jarayonida o'qishga ulgurishi maqsadida uchtadan ko'p nom ko'rsatilmaydi. U asosan shahardan chiqadigan yo'llarga o'rnatiladi.

Belgining rangi haydovchiga boradigan masofani aniqlashda katta yordam beradi: yashil – avtomagistral, ko'k – shahar tashqarisidagi yo'l, sariq – aylanib o'tishlar. Ta'kidlash joizki, bir belgida ranglar majmui bo'lishi ham mumkin.

**Maxsus transport vositalari** – tezkor (operativ) xizmat ko‘rsatuvchi (militsiya, tez yordam va o‘t o‘chish mashinasi kabilar) va shoshilinch tarzda harakat qilishni talab etuvchi (tepasida ko‘k, ko‘k-qizil chiroq-mayoqcha yoki tovushli, ishora belgisi bo‘lgan) transport vositalari. Bunday turdagi transport vositalarining haydovchilariga yo‘ldagi 3.17.2. «Xavf-xatar» taqiqlovchi belgisidan boshqa har qanday belgi va svetofor ishoralariga amal qilmay harakatlanishga ruxsat etiladi.

**Mexanik transport vositalari** – mexanizm (yurgizgich) yordamida harakatga keltiriladigan moslamalar (masalan, avtomobil, traktor, tramvay, trolleybus va hokazo). Shuni alohida ta’kidlash joizki, poyezd va moped mexanik transport vositalari hisoblanmaydi.



**3.3. «Mexanik transport vositalarining harakatlanishi taqiqlanadi»** (taqiqlovchi belgi) mexanizmlı, ya’ni yurgizgichi (dvigatel) bo‘lgan transport vositalarining harakatlanishini taqiqlaydi.

Ammo ushbu belgi o‘rnatilgan yo‘lda velosipedda, ot-aravada, mopedda harakatlanish taqiqlanmaydi. Shuni alohida ta’kidlash joizki, mazkur belgi ham «Harakatlanish taqiqlanadi» belgisidagi (istisno tariqasida) ruxsat etilgan harakatlanishlarga yo‘l qo‘yadi.

Taqiqlovchi belgilarning ko‘pchiligida harakatlanishi taqiqlangan transport vositalarining aniq turi ramziy tarzda tasvirlanadi. Biroq ushbu taqiqlovchi belgida garchi yengil avtomobil tasvirlangan bo‘lsa-da, boshqa mexanik transport vositalarining ham harakatlanishini taqiqlaydi



**6.9. «Mehmonxona»** (servis belgisi) – mehmonxona yoki motel (avtotransport qo‘yadigan joyi bo‘lgan mehmonxona) mavjud bo‘lgan joy.



**1.24. «Mol haydab o‘tish»** (ogohlantiruvchi belgi) to‘siqlar o‘rnatilmagan yaylovlar, molxonalar, fermalar yaqinidagi yo‘l bo‘lagi yoki podachilar kuzatuvı ostida mol haydab o‘tiladigan yo‘llarga o‘rnatiladi.

**Moped** – ishlash hajmi 50 sm kubgacha bo‘lgan, yurgizgichli (dvigatelli), maksimal konstruktiv tezligi 50 km/soat dan oshmaydigan ikki yoki uch g‘ildirakli transport vositasi. Moped kichkina va yurgizgichli bo‘lishiga qaramay, mexanik transport vositasi hisoblanmaydi.

*Mototsikl* – ikki g‘ildirakli, kajavali yoki kajavasiz mexanik transport vositasi. U huquqiy jihatdan yengil avtomobilga tengalashtiriladi. Masalan, kajavali mototsiklni har qanday vositada shatakka olishga ruxsat beriladi. Ammo kajavasiz mototsiklni shatakka olish va uning boshqalarni shatakka olishi qat’iyan man etiladi.



**3.5. «Mototsikllarning harakatlanishi taqiqlanadi»** (taqiqlovchi belgi) barcha mototsikllarning (yonida kajavasi bor yoki yo‘qligidan qat’iy nazar) harakatlanishini taqiqlaydi. U shifoxona, sanatoriy, oromgoh va shu kabilar yaqin bo‘lgan joylarga o‘rnatiladi. Mazkur belgi shu joyda yashaydigan va ishlaydigan mototsikl egalari hamda ushbu hududga xizmat ko‘rsatuvchi yuk tashuvchi motorollarning harakatlanishiga istisno tariqasida ruxsat beradi.

*Muvaqqat belgilar* – qisqa vaqt ichida foydalanish uchun o‘rnatiladigan yo‘l belgilari. Bunday toifadagi belgilarning yo‘l chetidagi ustunlarga o‘rnatiluvchi doimiy belgilardan farqi shundaki, ular ko‘chma ustunda bo‘ladi va yo‘lning harakatlanish qismi o‘rtasiga qo‘yiladi. Agar muvaqqat belgi doimiy yo‘l belgisiga zid bo‘lsa, haydovchilar muvaqqat belgiga qarab harakat qilishlari lozim.

## H



**7.16. «Nam qoplama»** (qo‘shimcha axborot belgisi) yo‘lning harakatlanish qismi namligi vaqtini ko‘rsatish uchun belgi ostiga o‘rnatiladi. U «Yuqori tezlik cheklanadi», «Eng kam oraliq» taqiqlovchi belgilarining yoki yo‘l yangi asfaltlangan bo‘lsa «Sirpanchiq yo‘l» ogohlantiruvchi belgisining ostiga o‘rnatiladi.



**7.17. «Nogironlar»** (qo‘shimcha axborot belgisi) «To‘xtab turish joyi» belgisi ostiga o‘rnatiladi va ushbu to‘xtab turish joyida faqat motoaravachalar, nogiron haydovchilar boshqaradigan avtomobillarning to‘xtab turishiga ruxsat etiladi. «Yuqori tezlik cheklanadi» taqiqlovchi belgisi ostiga o‘rnatilgan mazkur belgi haydovchilarni oldinda transport harakati gavjum va o‘tish murakkab bo‘lgan joy borligidan ogohlantiradi.



**7.18. «Nogironlar mustasno»** (qo‘shimcha axborot belgisi) qaysi yo‘l belgisining ostiga ilova qilinsa, o‘sha belgining faqatgina nogiron



haydovchilarga taalluqli emasligini bildiradi. Ushbu belgi yordamida nogiron haydovchilar uchun «Kirish taqiqlanadi» va «Harakatlanish taqiqlanadi» kabi taqiqlovchi belgilarning amal qilishi bekor qilinadi.



**1.16. «Notekis yo‘l»** (ogohlantiruvchi belgi) harakatlanish bo‘lagida (to‘lqinsimon yoki o‘yilgan joylar, do‘ngliklar, chuqurliklar, ko‘priklar bilan baravar bo‘lmagan joylar kabi) har xil notekisliklarning mavjudligini bildiradi. Ushbu belgi notekislikka yetmasdan oldinroq tezlikni pasaytirishni talab etadi, chunki yo‘lning notekis joyida tormoz berish aksariyat hollarda avtomobilning sirg‘anishiga yoki yo‘l-transport hodisasi (YTH)ning sodir bo‘lishiga olib keladi. Mazkur belgi yo‘l ta‘mirlash ishlari amalga oshirilayotgan joylarga ham o‘rnatilishi mumkin.

## O

**Ogohlantiruvchi belgilar (1.1.–1.31.3.)** ichi oqqa bo‘yalgan, ramzi qora, qirrası tepaga qaragan teng burchakli qizil hoshiyali uchburchak shaklda va umumiy ogohlantiruvchi xususiyatga ega bo‘ladi. Ular haydovchini yo‘lning xavfli va alohida e‘tiborga molik qismiga yaqinlashayotganligi haqida ogohlantiradi. Ogohlantiruvchi belgilar shahar ichida xavfli joyga 50-100 m, shahar tashqarisida esa 150-300 m qolganda o‘rnatiladi. Shahar tashqarisida ogohlantiruvchi belgilarning uzoq masofaga o‘rnatilishining sababi harakat tezligining balandligidadir. Shu bois, haydovchilar xavfli joyga yaqinlashayotganliklarini oldindan bilgan zahotiyuq (ya‘ni bunday belgilarnı ko‘rgach) tezlikni kamaytirish, oraliq masofani uzaytirish yoki tashqi yoritqichlarnı yoqish kabi zarur choralarnı ko‘rishlari lozim.

Ogohlantiruvchi belgilar, odatda, haydovchilarga yaxshiroq ko‘rinadigan joylarga o‘rnatiladi. Bunday belgilarga yo‘ldagi uylar, turli to‘siqlar, daraxtzorlar, yo‘lning do‘ngligi yoki pastligi kabilar xalaqıt bermasligi lozim.

**Ogohlantiruvchi ishoralar** – falokatli holatlarning oldini olish maqsadida harakatlanish yo‘nalishini o‘zgartirishda qo‘llaniladigan ishoralar.



**3.29., 3.30. «Oyning toq kunlarida to‘xtab turish taqiqlanadi» va «Oyning juft kunlarida to‘xtab turish taqiqlanadi»** (taqiqlovchi belgilar) har kuni emas, balki

oyning muayyan (juft yoki toq) sanalarida to‘xtab turishni taqiqlaydi. Bunday belgilarning qo‘yilishiga asosiy sabab yo‘llardagi qorni tozalashdir. Ushbu belgilar ayni vaqtda takometri ishlayotgan taksi avtomobillari yoki nogiron haydovchi boshqarayotgan 7.17. «Nogiron» belgili motoaravacha hamda avtomobillarning to‘xtashiga ruxsat beradi. Belgining ko‘k rangi uning faqat o‘rnatilgan tomondagina amal qilishini anglatadi.

**Oraliq masofa (distansiya)** – bitta harakatlanish bo‘lagida harakatlanayotgan ikki transport vositasi o‘rtasidagi va oldinda ketayotgan transport vositasining birdaniga to‘xtashi oqibatida to‘qnashuv sodir bo‘lishining oldini olish uchun saqlanishi lozim bo‘ladigan masofa.

**Oraliq masofa (interval)** – yonma-yon harakatlanish bo‘lagida harakatlanuvchi transport vositalari orasidagi masofa. U kamida 1–1.5 m bo‘lishi lozim. Biroq ro‘paradan kelayotgan transport vositasi o‘rtasidagi interval yuqoridagidan ham ko‘proq bo‘lgani maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, to‘xtab turgan transport vositasining eshigi to‘satdan ochilganda boshqa transport vositalariga xalaqit bermaydigan darajadagi masofada bo‘lishi kerak.



### 3.8. «Ot-aravaning harakatlanishi taqiqlanadi» (taqiqlovchi belgi)

ot-arava (chana), otliqlar va egarlangan yoki yuk ortilgan hayvonlarning harakatlanishi hamda hayvonlar podasini haydab o‘tish kabi holatlarni taqiqlaydi. Mazkur belgi shahar ko‘chalarida transport harakati gavjum bo‘lgan yo‘llarga o‘rnatiladi. Ushbu belgi o‘rnatilgan hududda, istisno tariqasida, bu joyga xizmat ko‘rsatuvchi ot-aravaning tegishli korxonaga yoki ot-arava egasining yashash joyiga yoki xizmat ko‘rsatish joyiga borishiga yo‘l qo‘yiladi.



### 5.19.1., 5.19.2., 5.19.3. «Oxiri berk yo‘l, ko‘cha» (axborot-ishora belgisi) yo‘l yoki

ko‘chaning oxiri berk ekanligi va undan o‘tib ketib bo‘lmasligidan haydovchini xabardor etadi. Shuni alohida ta’kidlash joizki, mazkur belgi boshi berk yo‘lda harakatlanishni taqiqlamaydi. U uzun o‘lchamli transport vositalari (avtopoyezd, refrijerator kabilar)ning haydovchilari uchun katta ahamiyatga ega sanaladi.



**6.7. «Oshxona»** (servis belgisi) yo‘l yoqasida umumiy ovqatlanish joyi (oshxona, choyxona, kafe va restoran kabilar) borligini bildiradi.

## P



**1.28. «Pastlab uchuvchi samolyotlar»** (ogohlantiruvchi belgi) yo‘lning ma‘lum qismida pastlab uchuvchi samolyotlardan (jumladan, ularning ovozidan) haydovchilarning qo‘rqmasligi haqida ogohlantiradi.



**5.17.1., 5.17.2. «Piyodalarning yer ostidan o‘tish joyi»** (axborot-ishora belgisi) yo‘lning o‘ng va chap tomoniga o‘rnatish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, u piyodalar yuradigan tonnellar va zinali o‘tish joylariga o‘rnatiladi. Afsuski, ba‘zan mazkur belgining borligini ko‘pchilik haydovchilar ko‘rmay yoki bilmay qoladilar. Oqibatda, haydovchi tomonidan yo‘lning harakatlanish qismida to‘satdan paydo bo‘lgan piyodani urib ketish ehtimoli ko‘payadi yoki yo‘l-transport hodisasi yuz beradi.



**5.17.3., 5.17.4. «Piyodalarning yer ustidan o‘tish joyi»** (axborot-ishora belgisi) – yo‘lning o‘ng va chap tomonidagi piyodalar yuradigan ko‘priklarning zinalari oldiga o‘rnatiladigan belgi. Mazkur belgi ayrim hollarda haydovchilarning chalg‘ishiga sabab bo‘ladi. Masalan, bunday belgini ko‘rgan aksariyat tajribasiz haydovchilar barcha piyodalarning yer usti o‘tish joyidan harakatlanishiga ishongan holda tezlikni oshiradilar. Oqibatda, bunday haydovchilar biror piyodaning yo‘lning harakatlanish bo‘lagiga to‘satdan yugurib chiqishi tufayli falokat yuz berishi ehtimolining ko‘payishi yoki yo‘l-transport hodisasining sodir bo‘lishiga sababchi bo‘ladilar.

**Piyoda** – transport vositasidan tashqarida bo‘lgan va yo‘lda ish bilan band bo‘lmagan holda harakatlanayotgan shaxs. Sariq nimcha kiygan yo‘l ishchilari piyoda hisoblanmaydilar. Haydovlarning YTH sodir etishda javobgarligini oshirish maqsadida yo‘l ishlari alohida guruhlarga kiritilgan.

Nogironlarni motorsiz aravachada olib yurganlar, velosiped, moped, chana, bolalar yoki nogironlar aravachasini yetaklab yurganlar ham piyoda hisoblanadilar.

*Piyodalar yo‘lkasi* – yo‘lning piyodalar harakatlanishi uchun mo‘ljallangan va transport harakati taqiqlangan qismi.



**4.6. «Piyodalar yo‘lkasi»** (buyuruvchi belgi) faqat piyodalarning harakat qilishlariga ruxsat beradi. U istirohat bog‘lari va dam olish uylarining yo‘lkalari hamda piyodalar uchun alohida ajratilgan joylarga o‘rnatiladi.

Piyodalar harakatlanadigan yo‘lkalarda nogironlarni yurgizgichsiz aravachalarda olib yurishga, shuningdek velosiped, chanani yetaklab yurishga ham ruxsat etiladi. Mazkur belgi bilan piyodalarning yurishlari uchun moslashtirilgan aholi yashaydigan hududdagi yo‘lning chekka yoki ko‘chaning harakatlanish qismlari ham belgilanadi. Bunday yo‘l bo‘lagiga yotiq chiziqlar chiziladi yoki to‘siqlar o‘rnatiladi.



**5.16.1., 5.16.2. «Piyodalar o‘tish joyi»** (axborot-ishora belgisi) yo‘lning harakatlanish bo‘lagida piyodalarning o‘tishlari uchun ajratilgan joyning mavjudligini anglatadi. Bunday joylarda qo‘shimcha tarzda «zebra» yotiq chizig‘i bo‘lishi ham mumkin. Bu piyodalarning o‘tishi uchun belgilangan joy deb yuritiladi va unda piyodalar transport vositalaridan oldin o‘tish imtiyoziga ega hisoblanadilar. Yuqoridagi belgilarda ikki xil tasvir, ya’ni bir-biriga qarab harakat qilayotgan piyodalar aks ettirilgan.



**1.20. «Piyodalar o‘tish joyi»** (ogohlantiruvchi belgi) haydovchilarni boshqarilmaydigan piyodalar o‘tish joyiga yaqinlashganlik to‘g‘risida ogohlantiradi. Mazkur belgi aholi yashaydigan joylardan tashqarida va shahar tashqarisidagi barcha o‘tish joylariga 150-300 m yetmasdan, shaharda esa bevosita o‘tish joyi oldiga 100 m qolganda o‘rnatiladi. Ushbu belgi zarur bo‘lganda to‘xtash uchun tezlikni kamaytirishni talab etadi va piyodalar uchun belgilangan o‘tish joyining yaqinlashganligi hamda piyodalarning transport vositalaridan oldin harakatlanish (yurib o‘tish) imtiyoziga ekanligini bildiradi.

*Piyodalar o‘tish joyi* – shu nomdagi belgi o‘rnatilgan yoki «zebra» qilib chizilgan yo‘lning harakatlanish qismida piyodalarning yurishlari uchun ajratilgan joy. Bunday joylarda piyodalar transport vositalariga nisbatan ko‘proq imtiyozga ega

hisoblanadilar. Masalan, piyodalarning yo'lda xavfsiz va to'sqinliklarsiz harakat qilishlariga imkon berish maqsadida belgilangan piyodalar o'tish joyidan transport vositalarining qayrilishi, o'tish joyi va unga 5 m dan yaqin bo'lgan yerda to'xtashi hamda to'xtab turishi taqiqlanadi.


Piyodalarning o'tish joyiga yaqinlashgan haydovchilar yo'ldan o'tayotgan piyodalarga xalaqit bermaslik va xavf tug'dirmaslik maqsadida darhol tezlikni kamaytirishlari yoki to'xtab turib, piyodalarni o'tkazishlari lozim. Agar piyodalar o'tish joyi oldida transport to'xtagan bo'lsa, boshqa haydovchilar transport vositasi oldida piyodalarning yo'qligiga ishonch hosil qilgach, harakatni davom ettirishlari kerak.

**Piyodalarning tashkiliy jamlanmasi** – bir qatorda to'rt kishidan ortiq bo'lmagan va yo'ning qatnov qismida faqat transport vositalarining harakat yo'nalishi bo'ylab o'ng tomondan bir yo'nalishda birgalikda harakatlanayotgan odamlar guruhi.



**3.10. «Piyodalarning harakatlanishi taqiqlanadi»** (taqiqlovchi belgi) odamlarning harakatlanishi xavfli bo'lgan yo'l (piyodalar yo'lkasi yoki trotuari mavjud bo'lmagan tunnel va ko'priklar) yoqalab

piyodalarning harakatlanishini taqiqlaydi. Mazkur inshootlarda qurilish va ta'mirlash ishlarini amalga oshiradigan ishchi va quruvchilarning harakatlanishi taqiqlanmaydi. Ushbu belgi faqat yo'ning o'rnatilgan tomoni uchungina taalluqli sanaladi.



**7.8. «Pullik xizmat ko'rsatish joyi»** (qo'shimcha axborot belgisi)

– 5.15. «To'xtab turish joyi» belgisi bilan qo'llaniladigan qisqa vaqt to'xtab turish joyi. Bunday joylarda xizmat uchun naqd pul to'lanadi. Mazkur belgi asosan teatr, kinoteatr, do'kon va bozorlarning oldidagi to'xtab turish joylariga o'rnatiladi.

## R



**5.35. «Reversiv harakatlanish»** (axborot-ishora belgisi) yo'ning bir yoki bir necha bo'laklarida harakatlanish yo'nalishi qarama-qarshi tomonga o'zgarishi mumkin bo'lgan yo'l qismining mavjudligini bildiradi.

Harakat yo'nalishining bunday davriy o'zgarishi zarur hollarda (masalan, ertalabki «tig'iz» soatlarda shahar markaziga borishda yoki kechki «tig'iz» soatlarda

shahardan tashqariga chiqishda) ko'chalar (yo'llar)ning transport o'tkazish imkoniyatlarini yaxshilaydi. Reversiv harakatlanish bo'lagi bo'yicha harakatlanish ikki ko'zli maxsus svetofor orqali muvofiqlashtiriladi. Undagi qizil rang – qiyshiq qo'shuv shaklida, yashil rang – pastga qaratilgan nayza shaklida bo'ladi. Agar reversiv svetofor ishlamayotgan bo'lsa, reversiv bo'lakda harakat qilish qat'iy qat'iy taqiqlanadi.



**5.36. «Reversiv harakatlanishning oxiri»** (axborot-ishora belgisi) reversiv harakatlanish bo'lagining oxirini bildiradi.



**5.37. «Reversiv harakatlanish yo'liga chiqish»** (axborot-ishora belgisi) chorrahalar oldiga o'rnatiladi va haydovchilarni harakatning o'zgaruvchan yo'nalishining bir qismi yoki bir necha qismi mavjudligi haqida xabardor etadi. Reversiv harakatlanish yo'liga burilganda haydovchilar eng chekkadagi o'ng harakatlanish bo'lagida harakat qilishlari lozim. Boshqa harakatlanish bo'lagiga o'tishga faqat reversiv svetofordan o'tgandan keyingina ruxsat etiladi.

**Ro'paradan harakatlanish** – ikki tomonlama harakat.



**2.6. «Ro'paradan harakatlanishning ustunligi»** (imtiyoz belgisi) qarama-qarshi harakatni qiyinlashtiradigan hollarda bevosita yo'lning toraygan qismi, ko'priklar, tunnel oldiga o'rnatiladi. Mazkur belgi ro'paradan kelayotgan transport vositasiga yo'l berish majburligini va yo'lning tor qismiga chiqish (bir vaqtning o'zida yonma-yon o'tishga imkon yo'q joy)ning yaqinlashgani anglatadi hamda yo'lning tor qismida harakat qilayotgan transport vositasini o'tkazishni taqiqlaydi. Bunday taqiqlashni ro'paradagi ko'rsatkichga qaraganda kaltaroq qilib chizilgan qizil rangdagi ko'rsatkich anglatib turadi. Yo'l belgilarini yaratuvchilar haydovchilar uchun tushunarli bo'lishini inobatga olgan holda, uzun ko'rsatkich bo'lsa o'tish mumkin, qisqa ko'rsatkich bo'lsa ro'paradan kelayotgan transportga yo'l berishni talab etadigan ishorani amaliyotga tatbiq etishgan.



**2.7. «Ro'paradagi harakatlanishga nisbatan imtiyoz»** (imtiyoz belgisi) 2.6. «Ro'paradan harakatlanishning ustunligi» imtiyoz belgisi bilan birga qo'llaniladi, lekin u qarama-qarshi tomondagi yo'lning toraygan qismiga o'rnatiladi. Bunda ro'paradagi transport vositasiga nisbatan birinchi

harakatlanish imtiyozi beriladi. Ko'rsatkichlar mazkur belgida har xil uzunlikda aks etib, qizil rangli ko'rsatkich oqiga nisbatan ancha qisqa bo'ladi. Bu ranglarni yaxshi ajrata olmaydigan haydovchilarning xavfsizligini ta'minlash maqsadida joriy etilgan. Bunda uzun ko'rsatkich o'tish mumkinligini, qisqa ko'rsatkich esa ro'paradagi transport vositasiga yo'l berish zarurligini anglatadi.

## S



### 1.8. «Svetofor tartibga soladi» (ogohlantiruvchi belgi)

harakatlanishni svetofor tartibga soladigan chorraha va piyodalarning o'tish joyi yo'l sharoiti (masalan, do'nglik yoki pastlik) tufayli o'sha yerga yetib bomaguncha ko'z ilg'amaydigan darajada bo'lsa, bunday joyga yetmasdan o'rnatiladi. Agar svetofor shahar tashqarisidagi yo'llarga yangidan o'rnatilsa, bu dastlab haydovchilar uchun kutilmagan holat bo'lishi va natijada tasodifan YTH yoki qoidabuzarliklar yuz berishi mumkin (chunki ular shu paytgacha bu yo'lni «yoddan» bilganlar). Aholi yashaydigan joylarda svetofor birinchi chorrahaga o'rnatiladi. Haydovchi svetoforning taqiqlovchi chirog'i yoki tartibga soluvchining ishorasi bilan darhol to'xtashga tayyor bo'lishi lozim. Ushbu belgining (vaziyatdan kelib chiqqan holda) yo'llarda o'rnatilishi yuqoridagi kabi YTHlarining oldini olishga xizmat qiladi.

*Servis belgilari (6.1.–6.12.)* – to'g'ri to'rt burchak shaklidagi keng ko'k hoshiyali, oq-qora rang bilan chizilgan ramziy belgilar. Ular yo'l yoqasida joylashgan xizmat ko'rsatish joylari mavjudligi haqida haydovchilarni xabardor etadi. Belgilar bevosita unga tegishli joylar oldiga yoxud ular yo'ldan chetda joylashgan bo'lsa, o'sha joylarga buriladigan yo'l oldiga o'rnatiladi. Bunday hollarda belgi tegishli tomonga yo'naltirilgan ko'rsatkich va manzilgacha bo'lgan masofani anglatuvchi raqamlar bilan aks ettiriladi.



### 1.15. «Sirpanchiq yo'l» (ogohlantiruvchi belgi) yo'lning

harakatlanish bo'lagidagi sirpanchiq joyning yaqinlashganligi to'g'risida ogohlantiradi. Ushbu belgi haydovchidan oldinda ketayotgan transport vositasi bilan to'qnashib ketmaslik uchun tezlikni kamaytirish, oraliq masofani uzaytirishni talab etadi. Odatda, u yo'l qurilishi va ta'mirlash ishlari

olib borilayotganda (agar shina bilan yo‘l orasidagi ishqalanish koeffitsiyenti 0,3 dan kam bo‘lsa) o‘rnatiladi. Shu bilan birga, mazkur belgi yo‘lning yog‘ingarchilik, kuzgi xazonrezlik vaqtidagi sirpanchiq bo‘lgan holatida, qor yoqqanda yoki yaxmalak bo‘lganda ham o‘rnatilishi mumkin. Bunday holatlarda transportning sirpanishi, hatto ag‘darilib ketishining oldini olish uchun tezlikni keskin oshirmasdan, tormoz bermasdan, boshqaruv chambaragini bir maromda ushlab harakatlanish lozim.



**1.10. «Sohilga chiqish»** (ogohlantiruvchi belgi) birorta sohil, daryo yoki suv havzasi qirg‘og‘iga chiqadigan yo‘lning ko‘prigi oldiga o‘rnatiladi. Bunda yo‘l odatda qiyali va keskin o‘ngga yoki chapga buriladigan bo‘ladi, ammo to‘g‘riga yurish davomli bo‘lmaydi. Mazkur belgiga rioya qilmaslik YTHning sodir etilishiga sabab bo‘lishi mumkin. Ushbu belgi takrorlanuvchi belgilar turiga kiradi.

*Sun‘iy inshootlar* – yo‘lning qatnov qismidagi ko‘priklar, yer osti yo‘llari va hokazolar.

## T



**5.18. «Tavsiya etiladigan tezlik»** (axborot-ishora belgisi) yo‘lning mazkur qismida (odatda, haydovchiga ko‘rinib turadigan muyulishda) tavsiya etiladigan tezlikni bildiradi. Ushbu belgi yuqori tezlikda ham, past tezlikda ham harakatlanishga ruxsat etadi. Mazkur belgida tavsiya etilgan tezlikda harakat qilish yo‘l davomida to‘xtamay harakatlanish kafolatini beradi, chunki navbatdagi chorrahaga yetib kelgan haydovchi aksariyat hollarda yashil chiroqqa to‘g‘ri keladi. Agar ushbu belgi birorta ogohlantiruvchi belgi bilan birga qo‘llanilsa, uning amal qilish hududi xavfli joyning uzunligi bilan o‘lchanadi.

*Takrorlanuvchi-ogohlantiruvchi belgilar* shahardan tashqaridagi yo‘llarda ikki marta, ya‘ni birinchi ogohlantiruvchi belgi 150-300 m uzoqlikda, uning ikkinchi marta takrorlanuvchisi esa xavfli joydan eng kamida 50 m uzoqlikda o‘rnatiladi. «Shlagbaumli temir yo‘l kesishmasi», «Shlagbaumsiz temir yo‘l kesishmasi», «Bolalar», «Ko‘tarma ko‘prik» «Sohilga chiqish», «Ta‘mirlash ishlari» kabi ogohlantiruvchi belgilar faqat shahar tashqarisida tezlik yuqori bo‘ladigan



joylardagina takrorlab qo'yiladi. Bu belgilarning takrorlanishi sababi shundaki, ular xavfdan ogoh bo'lishga, xushyorlikni yanada oshirishga da'vat etadi.



**5.14. «Taksilarning to'xtab turish joyi»** (axborot-ishora belgisi) oddiy yoki belgilangan yo'nalishli taksilarning to'xtab turish joyini bildiradi. Mazkur belgining havorang qismida yo'nalishdagi taksilarning yo'nalish tartib raqami ko'rsatilishi ham mumkin.

**Tartibga soluvchi** – tegishli guvohnomasi va belgisi (maxsus kiyimi va taniqlik belgilari: qo'l bog'ichi, jezl, qizil ishorali yorug'lik qaytargichli yoki yorug'lik qaytargichsiz gardish, qizil chiroq yoki bayroqcha) mavjud bo'lgan yo'l-patrul xizmati (YPX), harbiy avtonazorat xodimi, yo'ldan foydalanish idoralarining xizmatchisi, temir yo'l kesishmasi yoki sol kechuvlari (parom) navbatchisi kabilar.

**Taqiqlovchi belgilar (3.1.–3.31.)** – ko'pincha umumiy o'xshashlikka ega, ichi oq, atrofiga qizil hoshiya tortilgan va ramziy belgilari qora rangli belgilar. Bunday belgilar turli taqiqlashlar va cheklashlarni yoki ularni bekor qilish kabilarni anglatadi. Ushbu belgilarning amal qilish doirasi ular o'rnatilgan joydan boshlanadi. Agar yo'lda o'rnatilgan taqiqlovchi belgini bekor qiluvchi belgi bo'lmasa, taqiqlovchi belgi shahar ichida eng yaqin chorrahagacha, shahar tashqarisida esa (agar yo'lda chorraha bo'lmasa) aholi yashaydigan joy tamom bo'lguncha amal qiladi.

Taqiqlovchi belgilar guruhining havorang «To'xtab turish taqiqlanadi», «Toq kunlarda to'xtab turish taqiqlanadi», «Juft kunlarda to'xtab turish taqiqlanadi» kabi turlari umumiy ko'rinishi bilan taqiqlovchi belgilarni birlashtiradi, ammo ular o'rnatilgan yo'lning faqat o'ng tomonida amal qiladi. Agar ham o'ng tomon, ham chap tomonda taqiqlanadigan bo'lsa, u holda ikkita belgi o'rnatiladi.

**Taqiqlovchi yettita belgi** – faqat belgilangan yo'nalishli transport vositalari haydovchilariga (istisno tariqasida) taalluqli bo'lmagan belgilar. Ularga quyidagilar kiradi: «Kirish taqiqlanadi», «Harakatlanish taqiqlanadi», «Mexanik transport vositalarining harakatlanishi taqiqlanadi», «O'ngga burilish taqiqlanadi», «Chapga burilish taqiqlanadi», «Qayrilish taqiqlanadi», «To'xtash taqiqlanadi».




**1.23. «Ta'mirlash ishlari»** (ogohlantiruvchi belgi) yo'lning harakatlanish yoki ajratuvchi qismida yoxud chetida ta'mirlash ishlari amalga oshirilayotgani haqida ogohlantiradi. Mazkur belgi o'rnatilgan

joyda albatta tezlikni kamaytirish lozim. Ayniqsa, qorong‘i paytlarda (yoki tunda) yo‘lning bunday qismlari xavfli hisoblanganligi sababli chiroqlar bilan ta‘minlanishi zarur. Odatda, ushbu belgi qisqa muddatli ishlar vaqtida ishlar olib borilayotgan joydan 10-15 m oldinroqqa o‘rnatiladi va takrorlanuvchi belgilar toifasiga kiradi.



**7.3.1., 7.3.2., 7.3.3. «Ta‘sir yo‘nalishlari»** (qo‘shimcha axborot belgisi) ba‘zi turdagi transport vositalarining harakatini taqiqlovchi yoki «Yengil avtomobillar harakatlanadi» deb nomlangan

buyuruvchi va «Avtomobillarga mo‘ljalangan yo‘l» axborot-ishora belgilarining ta‘sir etish yo‘nalishlarini ko‘rsatadi.



**7.2.1., 7.2.2., 7.2.3., 7.2.4., 7.2.5., 7.2.6. «Ta‘sir oralig‘i»** (qo‘shimcha axborot belgisi) quyidagi holatlarda qo‘llaniladi:

– «Quvib o‘tish taqiqlanadi», «Yuk mashinalarida quvib o‘tish taqiqlanadi», «Yuqori tezlik cheklanadi», «Tovush moslamalaridan foydalanish taqiqlanadi», «Eng kam oralig‘ taqiqlovchi belgilarining ta‘sir doirasini kamaytirishda;

– «Xavfli burilishlar», «Tik nishablik», «Tik balandlik», «Sirpanchiq yo‘l», «Notekis yo‘l», «Tosh otilishi xavfi», «Bolalar», «Ta‘mirlash ishlari», «Yovvoyi hayvonlar», «Toshlar tushishi», «Yonlama shamol», «Pastlab uchuvchi samolyotlar», «Tonnel», «Boshqa xavf-xatarlar» ogohlantiruvchi belgilar yordamida xavfli joylarning masofasini ko‘rsatishda;

– tavsiya etilgan tezlikka rioya qilinadagan hududni ko‘rsatishda;

– to‘xtash va to‘xtab turishni hamda oyning toq yoki juft kunlarida to‘xtab turishni taqiqlovchi belgilarining (agar o‘rnatilgan taqiqlovchi belgi eng yaqin chorrahagacha amal qilmasa) amal qilish masofasini ko‘rsatishda.



**6.6. «Telefon»** (servis belgisi) avtomat-telefon mavjud bo‘lgan joyni anglatadi.



**1.6. «Teng ahamiyatli yo‘llar kesishuvi»** (ogohlantiruvchi belgi) ahamiyatiga ko‘ra teng bo‘lgan yo‘llar kesishgan joy oldiga o‘rnatiladi.

Bunday turdagi chorrahaga kelgan haydovchilar har to‘rt tomonda bir xil shunday belgini ko‘radilar. Teng ahamiyatli yo‘llarning o‘zaro kesishuvi natijasida

paydo bo'lgan chorrahadan o'tishda «xalaqit o'ng tomondan» qoidasiga amal qilish lozim. Bunda imtiyoz o'ng tomondan kelayotgan transport vositasiga beriladi.



**6.4. «Texnik xizmat ko'rsatish joyi»** (servis belgisi) transport vositalariga texnik xizmat ko'rsatish joyining mavjudligidan xabar beradi.

*Temir yo'l kesishmasi* – avtomobil yo'lining temir yo'l bilan bir sathda kesishgan joyi. Bu haydovchi uchun yo'ldagi eng xavfli joylardan biri hisoblanadi. Temir yo'l kesishmasida sodir bo'ladigan transport vositalarining poyezd bilan to'qnashuvi natijasida yuzaga keladigan og'ir oqibatlarini boshqa transport vositalari bilan chorrahalarda sodir etiladigan to'qnashuvlarga aslo tenglashtirib bo'lmaydi. Temir yo'l kesishgan joydagi YTH, odatda, odamlarning halokati bilan tugaydi, chunki poyezdlarning harakat tezligi ushbu kesishmalarda 100 *km/soatgacha* chiqadi. Bunda tormoz yo'li 2 *km* gacha bo'lishi mumkin, ya'ni poyezd mashinisti temir yo'l kesishgan joyda turib qolgan transport vositasini ko'pincha ko'radi, lekin mashinistda poyezdni darhol to'xtatish imkoniyati bo'lmaydi.

Temir yo'l kesishgan joydan o'tishdan oldin yaqinlashayotgan poyezd (lokomotiv, drezina)ning yo'qligiga ishonch hosil qilish lozim. Temir yo'l kesishgan joyga 100 *m* (shaharda 50 *m*) qolganda quvib o'tish, to'xtab turish, kesishgan joyning o'zida esa to'xtash va qayrilish qat'iyan man etiladi. Bundan tashqari, kesishma oldida turgan transport vositalarining qarama-qarshi bo'lagiga aylanib (quvib) o'tish va shlagbaumni o'zboshimchalik bilan ochish (yoki aylanib o'tish) hamda temir yo'llarning belgilanmagan joylaridan o'tish kabilar ham taqiqlanadi. Alohida ta'kidlash joizki, qishloq xo'jaligi, yo'l qurilishi va boshqa mashina hamda mexanizmlar temir yo'l kesishgan joydan faqat ortilgan holda, yurgizilmasdan olib o'tiladi. Buldozerlar, o't o'rgichlar, kombaynlarning ishchi asbob-uskunalari ko'tarilgan bo'lishi lozim.



**1.4.1., 1.4.2., 1.4.3., 1.4.4., 1.4.5., 1.4.6.**  
**«Temir yo'l kesishmasiga yaqinlashuv»**  
(ogohlantiruvchi belgi) «Shlagbaumli temir yo'l kesishmasi» va «Shlagbaumsiz temir

yo'l kesishmasi» belgilariga qo'shib o'rnatiladi va og'ma chiziqlar miqdori va og'malik tomoni bilan farqlanadi. Uch chizikli belgi kesishuvga 150-300 *m*, bir

chiziqli belgi 50-100 *m* qolganda, ikki chiziqli belgi esa bir chiziqli va uch chiziqli belgilarning o'rtasiga o'rnatiladi. Chiziqlar miqdori temir yo'l kesishgan joygacha qancha masofa borligini anglatadi.

Bir chiziqli belgidan o'tgandan keyin quvib o'tish taqiqlanadi. Uchta va bitta chiziqli belgi «Temir yo'l kesishmasi» (shlagbaumli va shlagbaumsiz) belgisi bilan, ikki chiziqli belgi esa alohida o'zi o'rnatiladi. Belgilardagi qiya chiziq yo'lining harakatlanish bo'lagiga qaratilgan bo'ladi, shuning uchun ularning bir qismi (1.4.1.–1.4.3 belgilar) yo'lining o'ng tomoniga, boshqalari esa (1.4.4.–1.4.6. belgilar) yo'lining chap tomoniga o'rnatiladi.



**6.1. «Tibbiy yordam ko'rsatish joyi»** (servis belgisi) dastlabki tibbiy yordam ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lgan joyning mavjudligini bildiradi.



**1.14. «Tik balandlik»** (ogohlantiruvchi belgi) tik yoki uzoqqa cho'ziladigan balandlikning borligi haqida ogohlantiradi. Ushbu belgida balandlikning tikkaligi foiz hisobida aks ettiriladi. Bunday balandlikda haydovchi tezlikni o'z vaqtida kerakli uzatishga o'tkazib, transport vositasining to'xtab qolishi, ayniqsa, orqaga ketishining oldini olishi zarur. Ro'paradan kelayotgan transport vositalarining bir-birini o'tkazishi murakkab bo'lgan joylarda balandlikka ko'tarilayotgan transport vositasi harakatni birinchi bo'lib boshlaydi, chunki bunday holatda uning o'rnidan qo'zg'alishi (ayniqsa, yo'l yaxmalak bo'lsa) qiyin kechadi.



**1.13. «Tik nishablik»** (ogohlantiruvchi belgi) tik yoki uzoqqa cho'ziladigan nishablik (balanddan pastga qarab yo'nalgan yo'l) borligidan ogohlantiradi va belgida nishablik foiz hisobida aks ettiriladi. Agar nishablik 12% bo'lsa, yo'lining har 100 metrda 12 *m* pasayishini anglatadi. Tik nishablikdan tushayotganda yoki tik balandlikka ko'tarilayotganda tezlikni kamaytirish lozim. Ro'paradan keladigan transport vositalarini o'tkazib yuborish murakkab bo'lgan joylarda nishablik bo'ylab (pastga) harakat qilayotgan haydovchi tik balandlikka ko'tarilayotgan haydovchiga nisbatan ikkinchi bo'lib harakatni boshlaydi, chunki uning nishablikka (pastga) tomon harakat qilishi uchun transport vositasining qo'zg'alishi deyarli qiyin bo'lmaydi. Ushbu belgi haydovchidan

hushyorlikni talab qiladi va tormoz moslamalarining sozligi, yo‘l sharoiti, transport vositasining holati va mavjud yukni hisobga olib, eng xavfsiz harakatlanish usulini tanlash kerakligini bildiradi.

Yo‘lning mazkur belgi o‘rnatilgan bo‘lagida transportning ulovchi mexanizmi yoki uzatish qutisini ishlatmasdan harakatlanish tavsiya etilmaydi, ya’ni tormozlab to‘xtatishda tormoz moslamasi va yurgizgichdan (ularni aralash ishlatgan holda) foydalanish lozim. Ayniqsa, yo‘l nam yoki qor bilan qoplangan va yaxmalak bo‘lsa, nishablikdan sekin tushish maqsadga muvofiqdir.

**Tirkama** – mexanik transport vositasi, yengil yoki yuk avtomobili, traktor va boshqa transport vositalari tarkibida harakatlanuvchi yurgizgich bilan jihozlangan moslama. U yarim tirkama va uzaytiriladigan tirkama shaklida bo‘lishi ham mumkin.



**3.7. «Tirkama bilan harakatlanish taqiqlanadi»** (taqiqlovchi belgi)

yuk mashinalari va traktorlarning barcha turdagi tirkamalar bilan, shuningdek mexanik transport vositalarini har qanday usulda shatakka olib harakatlanishini taqiqlaydi. Biroq yengil avtomobillarning tirkamalar bilan harakatlanishi va transportning ushbu belgi o‘rnatilgan hududdagi garajgacha yoki transport turadigan joygacha shatakka olinishi taqiqlanmaydi. Mazkur belgi avtopoyezdlar aylanishi qiyin bo‘lgan ko‘chalarning tor joylari oldiga qo‘yiladi. Ammo belgilangan hududdagi obyektlarga xizmat ko‘rsatuvchi avtopoyezdlarning kirishlariga ruxsat etiladi.



**3.26. «Tovush moslamalaridan foydalanish taqiqlanadi»**

(taqiqlovchi belgi) tovush chiqaruvchi moslamalardan foydalanishni taqiqlaydi. Mazkur belgi shifoxonalar, sanatoriylar, dam olish uylari, bolalar oromgohlari va shu kabi boshqa muassasalar oldiga o‘rnatiladi. Istisno tariqasida (garchi ushbu belgi o‘rnatilgan bo‘lsa-da), YTHning oldini olish (transport vositalarining o‘zaro to‘qnashib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik) maqsadida tovush chiqaruvchi moslamalardan foydalanishga ruxsat etiladi.



**1.29. «Tonnel»** (ogohlantiruvchi belgi) – qayrilish, burilish yoki

boshqa to‘siqlar orqali tonnelga kiraverishda uning peshtog‘i ko‘rinishi cheklangan yoki sun‘iy ravishda yoritilmagan bo‘lsa o‘rnatiladigan belgi. Mutaxassislarning tavsiyasiga ko‘ra, agar qorong‘i tonnelga kirayotgan

haydovchining ko‘zini quyosh nuri qamashtirsa, u tonnelga 100 m yetmasdan bitta ko‘zini yumishi va tonnelga kirishi bilan uni ochib, qamashgan ikkinchi ko‘zini yumishi zarur. Bu tavsiya ko‘zning qorong‘ilikka tez moslashishiga ko‘mak beradi.



**1.26. «Toshlar tushishi»** (ogohlantiruvchi belgi) o‘pirilish, tog‘ ko‘chkilari ehtimoli bo‘lgan tog‘ yo‘llariga o‘rnatiladi. Bunday hududda tunda harakatlanayotgan mashinalar bir-birining yonidan chiroqlari yoqilgan holda o‘tayotganlarida atroflaridagi to‘siqlarni sezmasliklari mumkin. Mazkur belgi yuqoridagi kabi tasoddiplardan haydovchilarni boxabar qiladi.



**1.17. «Tosh otilishi xavfi»** (ogohlantiruvchi belgi) mayda tosh yoki shag‘al to‘kilgan, ta‘mirlanayotgan yo‘l qismiga o‘rnatiladi. Ushbu belgining o‘rnatilishi haydovchidan tezlikni kamaytirishni, oldingi oyna va chiroqlarga tosh tegishidan ehtiyot bo‘lishni, oldinda ketayotgan transport bilan oraliq masofaning uzoq bo‘lishini talab etadi.



**3.6. «Traktorlarning harakatlanishi taqiqlanadi»** (taqiqlovchi belgi) barcha turdagi traktorlar, o‘ziyurar mashina va mexanizmlar (kombaynlar, katoklar, skreperlar, greyderlar, buldozerlar, yuk ko‘targichlar, o‘ziyurar ko‘targichlar)ning harakatlanishini taqiqlaydi. Ushbu belgi boshqa (tezyurar) transport vositalarining harakatlanishini osonlashtiradi. Belgilangan hududdagi obyektlarga xizmat ko‘rsatuvchi traktorlarning harakatlanishiga esa (istisno tariqasida) ruxsat etiladi.

*Tramvay* – belgilangan yo‘nalishli transport vositalari ichidan nisbatan ko‘proq imtiyozga ega bo‘lgan transport vositasi. Tramvayga avtobus va trolleybuslardan ko‘ra ko‘proq imtiyoz berilishining asosiy sababi uning manevr qilish imkoniyati cheklanganligida va izlarga «bog‘langan»ligidadir. Tramvay boshqariladigan chorrahada, harakat yo‘nalishidan qat‘iy nazar, har doim birinchi bo‘lib harakatlanadi. Agar asosiy qizil chiroq yoniq holda va qo‘shimcha bo‘lakdagi yashil nayzachali svetofor ishlayotgan bo‘lsa, istisno tariqasida, tramvay boshqa transportlarga yo‘l beradi.

Alohida ta‘kidlash joizki, tramvay boshqarilmaydigan chorrahada ham har doim birinchi bo‘lib harakatlanadi, ammo u ikkinchi darajali yo‘lda turgan bo‘lsa boshqalarga yo‘l berishga majbur.



**1.5. «Tramvay yo‘li bilan kesishuv»** (ogohlantiruvchi belgi) chorrahadan tashqarida tramvay yo‘li bilan kesishgan (depodan chiqish) yoki ko‘rinishi cheklangan (uy burchagi orqasida keskin burilishdagi egik joy) yoxud haydovchilar tramvay yo‘lini o‘z vaqtida ko‘ra olmaydigan joylarga o‘rnatiladi. Mazkur belgi o‘rnatilgan hollarda tramvay birinchi bo‘lib harakatlanish imtiyoziga ega hisoblanadi. Shu bois, bunday belgini ko‘rgan haydovchi tezlikni kamaytirib, hushyorlikni oshirishi kerak.

Shuni unutmaslik kerakki, haydovchi tramvay o‘tishi bilan uning orqasidan tramvay yo‘lini kesib o‘tayotganda, ro‘paradan boshqa tramvay kelmayotganligiga ishonch hosil qilishi lozim.



**5.13. «Tramvay to‘xtash joyi»** (axborot-ishora belgisi) tramvaylarning to‘xtash joyi (bekati)ni bildiradi. Ushbu belgining havorang qismida yo‘nalishlar raqami yoziladi. Tramvay bekati qarshisida boshqa transport vositalari tramvayga xalaqit bermagan holda yo‘lovchilarni tushirish va chiqarish uchun to‘xtashlari mumkin. Aks holda, ular bekatdan oldin va keyin 15 m joy qoldirishlari lozim. To‘xtash joyiga yetib kelgan tramvay yo‘lovchilarning tushib-chiqishlariga xalaqit bermaslik uchun oldida to‘xtab turgan tramvayga 1 m dan kam bo‘lmagan masofa qolganda to‘xtashi shart. Tramvay yo‘lovchilar tushib-chiqqandan keyin harakatni yana davom ettirishi mumkin.

**Transport vositasi** – odamlarni va yuklarni tashishga yoki maxsus ishlarni bajarishga mo‘ljallangan qurilma.

**Transport vositalarining tashkiliy jamlanmasi** – ko‘k yoki ko‘k va qizil rangli chiroq-mayoqcha yoqilgan transport vositalarining bevosita kuzatuv ostida bir-birining ketidan bitta harakatlanish bo‘lagida faralari yoqilgan holda harakatlanayotgan uch va undan ortiq mexanik transport vositalari guruhi.


**Transport vositasining egasi** – transport vositasiga mulk huquqida yoki boshqa ashyoviy huquqlarga egalik qiluvchi yuridik yoki jismoniy shaxs.



**7.4.1., 7.4.2., 7.4.3., 7.4.4., 7.4.5.**  
**«Transport vositasining turi»**

(qo‘shimcha axborot belgisi) – tegishli transport vositasiga taalluqli asosiy belgi ostiga o‘rnatiladigan belgi. Yengil avtomobil tasvirlangan qo‘shimcha axborot belgisi

to‘la vazni 3,5 t gacha bo‘lgan yuk mashinalari va yengil avtomobillarga, yuk avtomobili tasvirlangani esa faqat to‘la vazni 3,5 t dan ortiq bo‘lgan yuk avtomobillariga taalluqli bo‘ladi va hokazo.



7.6.1., 7.6.2., 7.6.3., 7.6.4.,  
7.6.5., 7.6.6., 7.6.7., 7.6.8.,  
7.6.9. «Transport vositasini

**to‘xtab turish joyiga qo‘yish usuli»** (qo‘shimcha axborot belgisi) «To‘xtab turish joyi» belgisiga qo‘shib qo‘llaniladi. U yengil avtomobillar va mototsikllarni trotuarlar yonida qo‘yishning to‘qqizta usuli (trotuarga to‘la yoki qisman kirish, trotuar bo‘ylab yoki ko‘ndalang qo‘yish kabilar)dan iborat bo‘lishi mumkin. Birinchi belgi (7.6.1)ga binoan har qanday transport vositalarini va qolgan sakkizta usulda esa faqat yengil avtomobillar va mototsikllarga ruxsat etiladi. Boshqa turdagi transport vositalariga (hatto to‘la vazni 3,5 t gacha bo‘lgan yuk avtomobillariga ham) ushbu sakkizta usulda qo‘yish taqiqlanadi.



**6.5. «Transport vositalarini yuvish joyi»** (servis belgisi)

avtomobillarni avtomat usulda yuvish joyi haqida haydovchilarni xabardor etadi.

**Trotuar** – yo‘lning qatnov qismiga tutashgan yoki undan maysazor, ariq va maxsus to‘siq (panjara, bordyur)lar bilan ajratilib, piyodalarning harakatlanishi uchun mo‘ljallangan qismi.

**Tuman** – haydovchining ko‘rishini nihoyatda qiyinlashtiradigan tabiiy jarayon. Ba’zida u ko‘rishni bir necha metrgacha cheklaydi. Tumanning xavfli tomoni shundaki, unda ko‘zga tashlanadigan narsalar haqiqatdagiga qaraganda ancha uzoq masofada bo‘lib ko‘rinadi.

**To‘la vazn** – ishlab chiqaruvchi korxonadan tomonidan belgilangan darajada jihozlangan transport vositasining haydovchi, yo‘lovchi va yuk bilan birga ruxsat etilgan eng yuqori vazni. Bu quyidagicha bo‘ladi:  $G = G_1 + G_2$ , bunda  $G_1$  – yuklangan vazn,  $G_2$  – yuk ko‘tarish kuchi. Shartli ravishda  $G_1 = G$  deb va  $G_2$  transport vositasining yukliligi yoki yuksizligidan qat’iy nazar har doim butunligicha qabul qilinadi.




Avtopoyezdning to‘la vazniga uning barcha tirkamalari (yarim tirkamalari) og‘irligi ham kiritiladi. «Yuk avtomobillarining harakatlanishi taqiqlanadi» belgisida to‘la vazn ko‘rsatilishi mumkin.



**5.38. «Turar joy dahasi»** (axborot-ishora belgisi) belgilangan hududda piyodalarning trotuarlarda yoki yo‘lining qatnov qismida harakatlanishiga ruxsat etilganligini bildiradi. Bunda piyodalar imtiyozga ega bo‘ladilar, biroq ular transport vositalarining harakatlanishiga asossiz xalaqit bermasliklari kerak. Mazkur belgi o‘rnatilgan joylarda, ya’ni turar joy dahalarida mexanik transport vositalarini boshqarishga o‘rgatish; yurgizgichi (dvegatel) ishlab turgan holda turish; ruxsat etilgan to‘la vazni 3,5 tonnadan ortiq bo‘lgan yuk avtomobillarining maxsus ajratilgan, belgi yoki chiziqlar bilan belgilangan joylardan tashqarida to‘xtab turishlari taqiqlanadi.



**5.39. «Turar joy dahasining oxiri»** (axborot-ishora belgisi) turar joy dahasi hududida harakatlanish tartibini belgilovchi talablar o‘rnatilgan yo‘lining tugaganini bildiradi.



**7.11. «To‘la vazni cheklangan»** (qo‘shimcha axborot belgisi) – umumiy vazni belgida ko‘rsatilgandan og‘ir bo‘lgan avtomobillarga tegishli. Ushbu belgi ba’zi taqiqlovchi yoki buyuruvchi belgilar bilan birga qo‘llaniladi.



**4.2.1. «To‘siqni o‘ngdan chetlab o‘ting», 4.2.2. «To‘siqni chapdan chetlab o‘ting», 4.2.3. «To‘siqni o‘ngdan yoki chapdan chetlab o‘ting»** (buyuruvchi belgilar) – ta’mirlash ishlari amalga oshirilayotgan joylarga, xavfsizlik orolchalariga, ko‘priklardagi tirkaklarga va estakadalarga o‘rnatiladi. Bunda to‘siqni yo‘nalish ko‘rsatkichi tomonidan chetlab o‘tishga ruxsat etiladi.

**To‘xtash** – majburiy to‘xtashdan farqli o‘laroq, yo‘lovchilarni tushirib-chiqarish yoki yuk ortish-tushirish bilan bog‘liq bo‘lgan holda 10 daqiqa yoki undan ko‘p bo‘lmagan muddatga maqsadli to‘xtash.

**To‘xtab turish** – transport vositasining yo‘lovchilarni tushirish-chiqarish va yuk ortish bilan bog‘liq bo‘lmagan holda 10 daqiqadan ko‘proq vaqtga harakatlanishdan atayin to‘xtashi. To‘xtashning to‘xtab turishdan farqi shundaki, to‘xtashda transport

bekatda yo'lovchilarni faqat tushirib-chiqarish uchungina to'xtaydi, to'xtab turishda esa transport vositasi uzoqroq muddat (masalan, tunab qolish, biror joyga kirib savdo qilish, kutish va shu kabi boshqa sabablar tufayli) qolib ketadi.



**5.15. «To'xtab turish joyi»** (axborot-ishora belgisi) shahar ichida yoki shahar tashqarisida transport vositalarining to'xtab turishi uchun mo'ljallangan maxsus ajratilgan maydonchanning mavjudligini anglatadi.

To'xtab turish joyidagi maydonchanning chegarasi yotiq chiziqlar yoki yo'lning harakatlanish bo'lagidan turli konfiguratsiyalar, ko'kalamzor yoxud yo'lkalar bilan ajratiladi. Agar to'xtab turish joyi muayyan transport turlarining turishiga mo'ljallangan bo'lsa, ushbu belgining ostiga «Transport vositasining turi» qo'shimcha axborot belgisi ilova qilinadi.

Agar to'xtab turish joyi yo'lkalar yonida joylashgan bo'lsa, u holda mazkur belgining ostiga «Transport vositasini to'xtab turish joyiga qo'yish usuli» lavhasi o'rnatiladi.



**7.9. «To'xtab turish muddati cheklangan»** (qo'shimcha axborot belgisi asosan «To'xtab turish joyi» belgisi bilan birga qo'llanilib,

transport vositasining ushbu to'xtab turish joyida turishining eng ko'p muddatini bildiradi. U do'konlar, bozorlar va tomosha joylari oldiga o'rnatiladi.



**3.28. «To'xtab turish taqiqlanadi»** (taqiqlovchi belgi) faqat to'xtab turishni taqiqlaydi, 10 daqiqagacha bo'lgan to'xtashni esa taqiqlamaydi.

Ushbu belgi taksi mashinalarining taksometri ishlayotgan holatda, shuningdek nogiron haydovchilar boshqaruvidagi «Nogiron» belgili motoaravacha va avtomobillarning to'xtashlariga ruxsat beradi. Belgining ko'k rangi uning faqat o'rnatilgan tomon uchungina ahamiyatli ekanligini va amal qilishini anglatadi. Mazkur belgi transport vositalarining tirbandligi vujudga kelishi ehtimoli bo'lgan yo'llarga o'rnatiladi.



**3.27. «To'xtash taqiqlanadi»** (taqiqlovchi belgi) 10 daqiqadan ortiq muddatga to'xtab turishni, va hattoki, 10 daqiqagacha to'xtashni ham taqiqlaydi. Ushbu belgi ko'pincha do'konlar, bozorlar va tomosha joylari

oldidagi tor yo'llarga o'rnatiladi. Uning boshqa taqiqlovchi belgilardan farqi shundaki, belgining ichi ko'k rangda, u faqat yo'lning o'rnatilgan tomoni uchungina

ahamiyatga ega va unda amal qiladi. Mazkur belgi, istisno tariqasida, belgilangan yo‘nalishli transport vositalari va «Nogiron» belgisi o‘rnatilgan yengil avtomobillar hamda motoaravachalarning to‘xtashiga ruxsat beradi. Agar belgi yotiq (uzilmas sariq rangli) chiziqlar bilan birga qo‘llanilsa, uning amal qilish joyi uzilmas chiziq bor joygacha qilib belgilanadi.



### 2.5. «To‘xtamasdan harakatlanish taqiqlanadi» (imtiyoz belgisi)

bevosita tartibga solinmagan chorraha, temir yo‘l kesishmasi, karantin va yo‘l-patrul maskanlari oldiga o‘rnatiladi. U to‘xtash («STOP») chizig‘i oldiga, agar bunday chiziq yo‘q bo‘lsa kesishgan yo‘ldan harakatlanadigan transport vositalariga yo‘l berish uchun kesishgan yo‘lning harakatlanish bo‘lagi oldida to‘xtashni talab qiladi. Ushbu belgi transport vositalari yo‘q bo‘lgan hollarda ham to‘xtamasdan o‘tishni taqiqlaydi.

Agar kesishgan yo‘ldan kelayotgan transport vositalarining ko‘rinishi yaxshi bo‘lmasa (ya‘ni ko‘rinishga daraxtlar, butalar, devorlar, binolar xalaqit bersa), mazkur belgi 2.4. «Yo‘l bering» imtiyoz belgisi mavjud joylarga ham o‘rnatiladi. Shuni alohida ta‘kidlash joizki, belgi ma‘lum chorrahada harakatlanish navbatini belgilaydi, ammo haydovchi buriladigan yoki kesib o‘tadigan yo‘lning asosiyligini anglatmaydi. Agar «To‘xtamasdan harakatlanish taqiqlanadi» imtiyoz belgisi o‘rnatilgan joyda svetoforning yashil chirog‘i yoniq bo‘lsa «Stop» belgisiga to‘xtash kerak emas, ammo biror sabab tufayli svetofor ishlamayotgan yoki uning sariq chirog‘i yoniq bo‘lsa, ushbu belgiga qat‘iy amal qilish lozim.



### 5.33. «To‘xtash» (axborot-ishora belgisi) – faqat svetofor (tartibga

soluvchi)ning taqiqlovchi ishorasida transport vositalari to‘xtaydigan joy. Belgi yo‘lning o‘ng tomoniga (svetoforga 5-20 m qolganda) o‘rnatiladi.

## F



### 5.40. «Falokatli holatlar uchun kirish yo‘li» (axborot-ishora belgisi)

– tik nishablik yoki dovonda yoxud «Tik nishablik» belgisi o‘rnatilgan yo‘lda to‘xtatish tizimi ishlamay qolgan transport vositalari o‘z harakatlarini to‘xtatishlari uchun kirishlari shart bo‘lgan va mazkur belgi bilan belgilangan (falokatli holatlar uchun mo‘ljallangan) yo‘l.



**1.11.1., 1.11.12. «Xavfli burilish»** (ogohlantiruvchi belgi) kichik radiusli do'nglik yo'llar yoki ko'rinishi cheklangan yo'llar oldiga o'rnatiladi va xavfli burilish yo'nalishini bildiradi. Bu belgi amal qiladigan joylarda yuqori tezlikda harakatlanish avtomobilning surilib yoki ag'darilib ketishiga sabab bo'lishi mumkin. Mazkur belgi rulni burishni taqozo etsa-da, ammo burilish chiroqlarini yoqishni talab etmaydi. Ushbu belgi amal qiladigan joylarda quvib o'tish nihoyatda xavfli sanaladi.



**1.12.1, 1.12.1. «Xavfli burilishlar»** (ogohlantiruvchi belgi) ikki xil xavfli burilishlar silsilasiga ega bo'lib, birinchi burilishi o'ngga yoki (aksincha) chapga bo'lgan ilon izisimon kichik radiusli do'nglik yo'llar oldiga o'rnatiladi. Bunday yo'llarda do'ngliklar orasidagi masofa 300 m dan kam bo'lishi ham mumkin. Mazkur belgi kechasi notanish yo'lda ketayotgan haydovchi uchun juda katta ahamiyatga ega. Agar ushbu belgi mavjud bo'lmasa, haydovchi yo'lining qaysi tomoniga (chapga yoki o'nga) burilishini bilmay ikkilanib qoladi. «Xavfli burilishlar» belgisi rulning burilishini taqozo qilsa-da, biroq burilish chiroqlarining yoqilishini talab etmaydi va ushbu belgi amal qiladigan joylarda quvib o'tish nihoyatda xavfli hisoblanadi.



**7.12. «Xavfli yo'l yoqasi»** (qo'shimcha axborot belgisi) «Ta'mirlash ishlari» belgisi bilan birga qo'llaniladi va haydovchini ta'mirlash ishlari olib borilayotganligi sababli yo'l chekkasiga chiqish xavfli ekanligi to'g'risida ogohlantiradi.



**3.17.2. «Xavf-xatar»** (taqiqlovchi belgi) haydovchilarni ko'p talofatli yo'l-transport hodisasi (YTH) yoki boshqa xavfli vaziyat vujudga kelganligi (ya'ni ko'prik buzilganligi, yo'l o'pirilishi, tog' yo'llarida sel kelganligi, qor ko'chkilari yuz berganligi, erta bahorda yo'ning yuvilib ketishi kabi holatlar sodir bo'lganligi) haqida ogohlantiradi. Bunday yo'llarda falokatni bartaraf etuvchi xizmatchilarning maxsus transportlaridan tashqari barcha transport vositalarining harakatlanishi taqiqlanadi.



**3.18.2. «Chapga burilish taqiqlanadi»** (taqiqlovchi belgi) eng yaqin kesishuv joyi oldiga o‘rnatiladi va shu kesishuvdan chapga burilishni taqiqlaydi. Ushbu belgi belgilangan yo‘nalishli transport vositalari uchun taalluqli emas. Mazkur belgi o‘rnatilgan joylarda qayrilishga ruxsat beriladi.



**3.13. «Cheklangan balandlik»** (taqiqlovchi belgi) gabarit balandligi (yuk bilan yoki yuksiz) belgida ko‘rsatilganidan ortiq bo‘lgan transport vositalarining harakatlanishini taqiqlaydi. Ushbu belgi temir yo‘ldan o‘tish joyining oldiga, tonnelga kirish joyiga, ko‘prik va estakadalarning ostiga o‘rnatiladi, chunki ularga sig‘maydigan transport vositalari yoki yuklar zarar yetkazishi mumkin. Bunday hollarda belgida ko‘rsatilganidan baland bo‘lgan transport vositalari mazkur belgi o‘rnatilgan joyni aylanib o‘tishlari kerak.



**3.14. «Cheklangan kenglik»** (taqiqlovchi belgi) gabarit kengligi belgida ko‘rsatilganidan ortiq bo‘lgan transport vositalarining harakat qilishini taqiqlaydi. Ushbu belgi kengligi cheklangan tonnellar va ark (darvoza)larga kirish joyi oldiga, ko‘prik va estakada kabilarning ostiga o‘rnatiladi. Gabarit kengligi belgida ko‘rsatilganidan ortiq bo‘lgan transport vositalari mazkur belgi o‘rnatilgan joyni aylanib o‘tishlari kerak.



**3.15. «Cheklangan uzunlik»** (taqiqlovchi belgi) belgida ko‘rsatilganidan uzun gabaritli (yukli yoki yuksiz) avtomobillar va avtopoyezdlarning harakatlanishini taqiqlaydi. Ushbu belgi harakatlanish bo‘lagi tor bo‘lgan va keskin qayrilishli joylarning oldiga o‘rnatiladi.



**5.32.1., 5.32. 2., 5.32.3. «Chetlab o‘tish yo‘nalishi»** (axborot-ishora

belgisi) sariq rangli va uch xil (to‘g‘riga, o‘ngga, chapga) ko‘rinishga ega bo‘ladi. Mazkur belgi yo‘lning vaqtincha yopilgan qismini chetlab o‘tish yo‘nalishini anglatadi. Bundan tashqari, u «Aylanib o‘tish tasviri» belgisi bilan birga yo‘nalishdagi har bir chorraha oldiga o‘rnatiladi.

**Chorraha** – yo‘llarning bir sathda kesishadigan, tutashadigan va ayriladigan joyi. Turli sathda kesishgan yo‘llar (estakada, tonnel singarilar) chorraha hisoblanmaydi. Yo‘l yoqasida joylashgan muassasa, tashkilot, korxonalar (hovlilar,

to'xtab turish joyi va avtomobillarga xizmat ko'rsatish va yonilg'i qo'yish shahobchalari kabilar) hududining kirish va chiqish yo'llaridan hosil bo'lgan kesishmalar chorraha hisoblanmaydi. Chorrahalar ikki xil bo'ladi: tartibga solingan va tartibga solinmagan chorrahalar. Svetofor yoki tartibga soluvchining ishoralari orqali boshqariladigan chorraha tartibga solingan chorraha deb ataladi. Svetoforning doimiy miltillovchi sariq ishorasi yongan holatda yoki svetoforlar ishlamayotgan bo'lsa yoxud tartibga soluvchi mavjud bo'lmagan chorraha tartibga solinmagan chorraha deb ataladi.

## SH



**7.5.1. «Shanba, yakshanba va bayram kunlari»** (qo'shimcha axborot belgisi) qizil rangli yulduzcha tasvirida bo'ladi va u asosiy belgining haftaning qaysi kunlari amal qilishini bildiradi. Boshqa kunlarda esa mazkur belgi o'z ahamiyatini yo'qotadi.



**6.2. «Shifoxona»** (servis belgi) – mukammal tibbiy yordam berish imkoniyati mavjud bo'lgan tibbiyot muassasasi.



**1.1 «Shlagbaumli temir yo'l kesishmasi»** (ogohlantiruvchi belgi) temir yo'l kesishmasida shlagbaum (yarim shlagbaum), ikki linzali navbati bilan yonib-o'chadigan qizil rangli svetofor, ovozli signal chiqaruvchi moslama (semafor), to'q sariq rangli nimcha kiygan navbatchi borligidan ogohlantiradi. Bunday joydagi svetoforning yonib-o'chadigan chiroqlarini haydovchi uzoq masofadan ham ko'ra oladi. Mazkur belgi takrorlanuvchi belgilar toifasiga kiradi.



**1.2. «Shlagbaumsiz temir yo'l kesishmasi»** (ogohlantiruvchi belgi) temir yo'l kesishmasida shlagbaum (yarim shlagbaum) va to'q sariq rangli nimcha kiygan navbatchi yo'qligi haqida haydovchilarni ogohlantiradi. Kesishma oldiga temir yo'lning birinchi izidan 20 m uzoqlikda navbati bilan yonib-o'chadigan qizil rangli svetofor o'rnatilishi mumkin. Kesishma oldiga ushbu ogohlantiruvchi belgidan keyin «Bir izli temir yo'l» yoki «Ko'p izli temir yo'l» belgisi o'rnatiladi. Yuqoridagi belgilardan biri haydovchini temir yo'l izlarining

miqdoridan va yo‘llar kesishadigan qatnov bo‘lagi borligidan xabardor etadi. Mazkur belgi takrorlanuvchi belgilar toifasiga kiradi.

## E



**4.7. «Eng kam tezlik»** (buyuruvchi belgi) harakatlanish mumkin bo‘lgan eng kam tezlikni (*km/soat*) belgilaydi va u haydovchining zimmasiga belgida ko‘rsatilgan yoki undan ham yuqori tezlikda harakatlanish mas’uliyatini yuklaydi. Mazkur belgi tez harakatlanuvchi transportlarga xalaqit berishni kamaytirish maqsadida ko‘p bo‘lakli yo‘lning eng chekka chap tomonidagi bo‘lak ustiga o‘rnatiladi. Shu bois, sekin yuradigan transport vositalari yo‘lning o‘ng tomonidagi eng chekka bo‘lakda harakat qilishlari lozim bo‘ladi.



**3.16. «Eng kam oralig‘idagi eng kam masofadan yaqinlashib harakatlanishni taqiqlaydi»** (taqiqlovchi belgi) belgida ko‘rsatilgan ikki transport vositasi oralig‘idagi eng kam masofadan yaqinlashib harakatlanishni taqiqlaydi. Mazkur belgi ko‘l va daryolarning muz yo‘llarida, yuk ko‘tarish cheklangan joylar va estakadalarda, ko‘chalar hamda yo‘llarning sirpanchiq bo‘lagi oldida o‘rnatiladi. Yuqorida ta’kidlangan sirpanchiqlik holatida ushbu belgi bilan birga «Sirpanchiq yo‘l» belgisi ham o‘rnatilishi mumkin.



**4.8. «Eng kam tezlik belgilangan yo‘lning oxiri»** (buyuruvchi belgi) oldindan «Eng kam tezlik» belgisi qo‘yilgan yo‘lga yoki uning bir bo‘lagiga o‘rnatiladi. Mazkur belgi haydovchining keyinchalik bu yerda istalgan yuqori tezlikda va yo‘l harakati qoidalariga amal qilgan holda harakatlanishiga ruxsat beradi.

## YU



**5.30.1, 5.30.2, 5.30.3. «Yuk avtomobillari uchun harakatlanish yo‘nalishi»** (axborot-ishora belgisi) uch xil ko‘rinishga (to‘g‘riga, o‘ngga va chapga) ega bo‘lib, yuk avtomobillari, traktorlar va o‘ziyurar mexanizmlarning haydovchilariga qulayroq, yaxshi qoplamali, qisqaroq yo‘llar orqali harakatlanishni ko‘rsatadi. Biroq mazkur belgi agar “Yuk mashinalarining harakatlanishi taqiqlanadi” taqiqlovchi belgisi bo‘lmasa, har qanday yo‘nalishda harakat qilish va boshqa

yo‘llarga burilishga ham ruxsat beradi. Odatda, aylanib o‘tish yo‘nalishidagi har bir chorraha oldiga ushbu belgi o‘rnatiladi.



**3.22. «Yuk avtomobillarida quvib o‘tish taqiqlanadi»** (taqiqlovchi belgi) to‘la vazni 3,5 tonnadan ortiq bo‘lgan yuk avtomobillarida boshqa barcha transport vositalarini (soatiga 40 km dan kam tezlikda yakka tartibda kelayotgan transport vositalari, traktor, ot-arava hamda velosiped bundan mustasno) quvib o‘tishni taqiqlaydi. Mazkur belgi ro‘paradan kelayotgan transport vositalari bilan to‘qnashuv xavfi kuchli bo‘lgan yo‘llarga o‘rnatiladi.



**3.23. «Yuk avtomobillarida quvib o‘tish taqiqlangan hududning oxiri»** (taqiqlovchi belgi) chorrahalar oralig‘iga o‘rnatiladi va keyinchalik yo‘l harakati qoidalarida belgilangan zarur talablarni bajargan holda yuk avtomobillarida quvib o‘tish mumkinligini bildiradi.



**3.4. «Yuk mashinalarining harakatlanishi taqiqlanadi»** (taqiqlovchi belgi) agar belgida mashinaning cheklangan vazni aks ettirilmagan bo‘lsa, to‘la vazni 3,5 tonnadan ortiq bo‘lgan barcha yuk avtomobillari, traktorlar hamda o‘ziyurar mashina va mexanizmlarning harakatlanishini taqiqlaydi. Ushbu belgi ta’sir oralig‘ida yashovchi, ishlovchi, shuningdek bortlariga oq chiziq tortilgan va odam tashuvchi yuk avtomobillarining harakatlanishini taqiqlamaydi. Mazkur belgi asosan yuk mashinalari oqimini bekor qilish orqali boshqa transport vositalari uchun qulayroq sharoit yaratish, shahar ko‘chalarining havosidagi zaharli gazlar va shovqinni kamaytirish maqsadida o‘rnatiladi. Sharhlanayotgan belgi uchun avtomobilning yuklanganligi yoki bo‘shligining ahamiyati yo‘q.



**7.7. «Yurgizgich (dvigatel)ni ishlatmasdan to‘xtab turish joyi»** (qo‘shimcha axborot belgisi) aksariyat hollarda «To‘xtab turish joyi» belgisiga ilova qilinadi. Bunga sabab – to‘xtab turish joyida faqat yurgizgichi (o‘chirilgan) ishlamayotgan transport vositalarining to‘xtab turishiga ruxsat berish orqali mo‘tadil ekologik muhitni saqlab qolishga erishish. Shundan kelib chiqqan holda mazkur belgi odamlar to‘planadigan joylar, shifoxona, sanatoriy, dam olish uyi va bolalar maydonchasi kabilarning oldiga ўрнатиллади.





**3.24. «Yuqori tezlik cheklanadi»** (taqiqlovchi belgi) tezlikni belgida ko'rsatilgan me'yordan oshirishni taqiqlaydi. Ushbu belgi yo'lining xavfli bo'lagi oldiga (do'nglik, ilon izi yo'llar, ko'priklar, aholi yashaydigan yoki ko'rinishi cheklangan joylarga) o'rnatiladi.

**3.25. «Yuqori tezlik cheklangan hududning oxiri»** (taqiqlovchi belgi) chorrahalar oralig'ida o'rnatiladi va keyinchalik qoidada ko'rsatilgan tezlikda harakatlanish mumkinligini anglatadi.

## YA

**Yalt-yalt etuvchi chiroq-mayoqcha** avtomobilning tomiga o'rnatiladi va u ko'k, ko'k-qizil, qizil, yashil yoki zarg'aldoq rangli bo'lishi mumkin. Zarg'aldoq rangli mayoqcha bilan suv sepadigan, qor tozalaydigan mashinalar, kranlar, kombaynlar, chalg'ili traktorlar jihozlanadi. Bunday rangdagi mayoqcha imtiyozli harakatlanishlarga ruxsat bermaydi va boshqa haydovchilarning e'tiborini tortib xavfdan ogohlantirish vazifasini o'taydi. Ko'k, ko'k-qizil rangli chiroq-mayoqchali maxsus transport vositalari imtiyozli harakatlanish huquqiga ega hisoblanadilar.

**Yarim tirkama** tirkamaning bir turi bo'lib, faqat ulanishi jihatidan farq qiladi (bunda o'qlar miqdoriga qaralmaydi). Agar tirkama vazni (og'irligi)ning bir qismi tortuvchiga tushsa, u yarim tirkama hisoblanadi. Yarim tirkama tortuvchiga «egar» deb ataluvchi moslama yordamida ulanadi.

## O'



**3.18.1. «O'ngga burilish taqiqlanadi»** (taqiqlovchi belgi) faqat birinchi (eng yaqin) kesishuvdan o'ngga burilishni taqiqlaydi va yo'llar kesishgan joy oldiga o'rnatiladi. Mazkur belgi belgilangan yo'nalishli transport vositalari haydovchilariga taalluqli emas.

**O'ng tomonlama harakatlanish** – harakatlanayotganda haydovchilarning o'ziga tegishli yo'lkada (o'ng tomonda) bo'lishi va chap tomon bilan (bortlar) bir-birlarining yonidan o'tishni talab etuvchi tartib. O'ng tomonlama harakatlanish tartibi jahonning ko'plab mamlakatlarida joriy etilgan. Bunday harakatlanish tartibi joriy etilgan

joylarda transportning boshqaruv chambaragi (ruli) haydovchining quvib o'tishni amalga oshirishi jarayonida atrofni bemalol ko'rishi uchun chap tomonga o'rnatiladi.



**3.12. «O'qqa tushadigan og'irlik cheklangan»** (taqiqlovchi belgi) transport vositasining har bir o'qiga tushadigan og'irlik belgida ko'rsatilganidan ko'p bo'lgan transport vositalarining harakatlanishini taqiqlaydi. Ushbu belgi kuz-bahor mavsumida qor va muzlarning erishi natijasida yo'llarning tuproq qatlami buzilmasligi uchun o'rnatiladi. Shu bois, barcha haydovchilar mazkur belgining talablariga rioya qilish maqsadida o'z avtomobillarining har bir (old va orqa) o'qiga tushadigan og'irlikni bilishlari kerak. Alohida ta'kidlash joizki, yuk avtomobillarining oldingi o'qiga avtomobil og'irligining taxminan 1/3, orqa o'qiga esa 2/3 qismi to'g'ri keladi. Shuning uchun yuk avtomobilining orqa o'qiga ikkitadan g'ildirak o'rnatiladi. Yengil avtomobillarning har ikkala o'qiga og'irlik deyarli teng tushadi.

## Q

**Qatnov qismi** – yo'ning relssiz transport vositalari harakatlanishi uchun mo'ljallangan qismi. Yo'ning qatnov qismlarini ajratuvchi bo'laklar ularning chegarasi hisoblanadi. Ayrim hollarda tramvay yo'li relssiz transport vositalarining harakatlanishi uchun mo'ljallangan qatnov qismining chegarasi hisoblanadi.



**5.11.1. «Qayrilish joyi»** (axborot-ishora belgisi) orqaga qaytib harakatni davom ettirish uchun qayrilishga ruxsat berilgan joyning borligini bildiradi. Bunday joydan chapga burilish mutlaqo taqiqlanadi.



**5.11.2. «Qayrilish oralig'i»** (axborot-ishora belgisi) qayrilish oralig'ining masofasini bildiradi. Bunday yo'llarda YTHning oldini olish uchun chapga burilish taqiqlanadi. Mazkur belgi ko'p miqdordagi transport vositalarining yanada xavfsizroq qayrilishlarini ta'minlash uchun o'rnatiladi. Qayrilishni amalga oshirishda boshqa transport vositalarining qayrilishlariga imkon berish kerak bo'lsa, bunday joyning eng uzoq burchagiga borib qayrilish lozim.



**3.19. «Qayrilish taqiqlanadi»** (taqiqlovchi belgi) birinchi (eng yaqin) yo'l kesishgan joydan qayrilishni taqiqlaydi, ammo chapga burilishlarga ruxsat beradi. Mazkur belgi faqatgina belgilangan

yoʻnalishli transport vositalari haydovchilari uchun taalluqli emas.

**Qorongʻi vaqt** – kechki gʻira-shiraning boshlanishi oxiridan tonggi gʻira-shiraning boshlanishigacha boʻlgan vaqt.

**Quvib oʻtish** – egallagan harakatlanish boʻlagidan chiqib oldinda ketayotgan transport vositasidan oʻzib ketish. Quvib oʻtish tugallangandan soʻng haydovchi ilgari egallagan harakatlanish boʻlagiga qaytishi shart (oʻng tomondan ruxsat etilgan quvib oʻtishdan tashqari). Biroq ushbu yoʻnalishdagi harakatlanish boʻlagi ikki yoki undan ortiq boʻlgan hollarda quvib oʻtayotgan haydovchi oʻzi egallagan boʻlakka qaytgan zahotiy oq keyingi quvib oʻtishni boshlashiga toʻgʻri kelsa va oʻzidan katta tezlikda orqadan harakatlanib kelayotgan transport vositalariga xalaqit bersa, chap boʻlakda harakatlanishni davom ettirishi mumkin.



**3.20. «Quvib oʻtish taqiqlanadi»** (taqiqlovchi belgi) barcha transport vositalariga quvib oʻtishni taqiqlaydi. U quvib oʻtish xavfli boʻlgan (koʻrinish cheklangan, harakat juda gavjum) joylarga oʻrnatiladi. Ammo mazkur belgi, istisno tariqasida, soatiga 40 km dan kam tezlikda, yakka tartibda harakatlanayotgan transport vositalarini quvib oʻtishga ruxsat beradi.



**3.21. «Quvib oʻtish taqiqlangan hududning oxiri»** (taqiqlovchi belgi) chorrahalar oraligʻida oʻrnatiladi va keyinchalik yoʻl harakati qoidalarida belgilangan zarur talablarni bajargan holda quvib oʻtish mumkinligini bildiradi.

**Qoʻshimcha axborot belgilari (7.1.1.–7.18.)** oq rangli toʻgʻri toʻrtburchak shaklda boʻladi. Ular alohida qoʻllanilmaydi va boshqa belgilarning aniq amal qilishi yoki amal qilish chegarasini bildiradi. Odatda, bitta asosiy belgi bilan birga ikkitadan ortiq qoʻshimcha axborot belgisi ishlatilmaydi.

## H

**Haydovchi** – transport vositasini boshqarayotgan shaxs. Boshqarishni oʻrgatuvchi, miniladigan hayvonlarda ketayotgan yoki ularni yetaklab borayotgan, chorva mollari (poda)ni haydab borayotgan shaxslar ham haydovchiga tenglashtiriladi.

**Haydovchilik guvohnomasi** – tegishli toifadagi transport vositasini boshqarish huquqini beradigan hujjat. Unda A, B, C, D, E toifalar bo‘ladi. A – mototsikl, motoroller; B – yengil avtomobillar va to‘la vazni 3,5 t gacha bo‘lgan yuk avtomobillari; C – to‘la vazni 3,5 t dan ortiq bo‘lgan yuk avtomobillari; D – avtobuslar (haydovchidan tashqari 8 ta o‘rindiqli transport vositalari), E – toifadagi guvohnomalar esa avtopoyezdlarni boshqarishga huquq beradi.



**7.14. «Harakatlanish bo‘lagi»** (qo‘shimcha axborot belgisi) belgi yoki svetofor ta‘siridagi harakatlanish bo‘lagini ko‘rsatadi. Ushbu belgi «Yuqori tezlik cheklanadi» taqiqlovchi belgisi yoki «Eng kam tezlik» buyuruvchi belgilaridan birining ostiga qo‘yilsa, ko‘p bo‘lakli yo‘lda muvofiqlashtirilgan tezlik tartibi joriy qilinadi.

**Harakatlanish bo‘lagi** – transport vositalarining bir qatorda harakatlanishi uchun kengligi yetarlicha bo‘lgan, chiziqlar va yo‘l belgilari bilan belgilangan yoki belgilanmagan qatnov qismining har qanday bo‘ylama bo‘lagi.

Yo‘l ajratuvchi bo‘lak bilan chegaralangan bir nechta harakatlanish bo‘lagiga ega bo‘lishi mumkin. Tramvay yo‘li ham harakatlanish bo‘lagining chegarasi bo‘lishi mumkin. Harakatlanish bo‘lagi bir yoki bir nechta qatnov qatorlaridan iborat bo‘ladi. Bitta qatnov qatori o‘rtacha 3 m bo‘ladi. Qatnov qatori harakat yo‘nalishi bo‘ylab chap va o‘ng tomondagi trotuardan boshlab o‘lchanadi. Ularga yotiq chiziqlar chizilishi shart emas.

**Harakatlanish bo‘lagining cheti** – uzluksiz oq chiziq ko‘rinishidagi yo‘lning harakatlanish bo‘lagini asfaltlangan yo‘lning chetidan ajratib turuvchi yotiq chiziq. Haydovchilarning yo‘l chetiga chiqishlari va yo‘l chetidan yo‘lning harakatlanish bo‘lagiga o‘tishlarida faqatgina oq rangli uzluksiz yotiq chiziqlarni bosib o‘tishlariga ruxsat etiladi.



**5.20.3. «Harakatlanish tasviri»** (axborot-ishora belgisi) biror yo‘nalish bo‘yicha harakatlanish taqiqlangan murakkab chorralarda transport vositalarining harakatlanishi tartibi va yo‘nalishini ko‘rsatadi. Mazkur belgi bevosita chorraha oldiga o‘rnatiladi. U shahar tashqarisidagi yo‘llarda chorrahadan 150-300 m, shahar ichida esa 50-100 m oldinda o‘rnatiladi.



**3.2. «Harakatlanish taqiqlanadi»** (taqiqlovchi belgi) yoʻlning maʼlum qismida, dam olish joylarida, kasalxona va umumfoydalanadigan hovlilarga kiraverishda barcha transport vositalarining harakatlanishini taqiqlaydi. Ushbu belgi yoʻnalishli transport vositalari, nogironlar boshqaradigan avtomobillar, motoaravachalar, mazkur hududdagi korxonalariga xizmat koʻrsatuvchi yoxud egalari shu hududda yashaydigan yoki ishlaydigan transport vositalari, yoʻlovchilar yoki yuk tashiydigan taksi avtomobillarining harakatlanishiga taalluqli emas. Bunday (istisno tariqasida ruxsat etilgan) transport vositalari belgi oʻrnatilgan hududga (yaʼni koʻzlagan manzillariga) eng yaqin chorrahadan kirib-chiqishlari lozim.



**4.1.5. «Harakatlanish toʻgʻriga yoki chapga»** (buyuruvchi belgi) chorraha oldiga oʻrnatilib, toʻgʻriga, chapga va qayrilishga ruxsat etadi. Mazkur belgi faqat oldiga oʻrnatilgan chorrahaning kesishgan joyida amal qiladi. Ammo ushbu belgining belgilangan yoʻnalishli transport vositalariga daxli yoʻq.



**4.1.1. «Harakatlanish toʻgʻriga»** (buyuruvchi belgi) – chorraha oldiga (bunda belgi transport vositalarining toʻgʻriga harakatlanishlariga ruxsat beradi) yoki chorrahadan keyin va koʻchalar boshlanadigan joylarga oʻrnatiladi. Mazkur belgi oʻng tomonda joylashgan hovli, tashkilot, korxonalar va yoʻlga tutash boshqa hududlarga burilishni taqiqlamaydi. Ushbu belgi belgilangan yoʻnalishli transport vositalariga taalluqli emas.



**4.1.6. «Harakatlanish oʻngga yoki chapga»** (buyuruvchi belgi) chorraha oldiga oʻrnatilib, transport vositalarining oʻngga, chapga harakatlanishiga va qayrilishiga ruxsat beradi. Mazkur belgi oʻrnatilgan chorrahada toʻgʻriga harakatlanish taqiqlanadi. Belgi belgilangan yoʻnalishli transport vositalariga taalluqli emas.



**4.1.2. «Harakatlanish oʻngga»** (buyuruvchi belgi) – chorraha oldiga oʻrnatiladi va transport vositalarining faqat oʻngga harakatlanishiga ruxsat beradi. Mazkur belgi boshqa haydovchilarni yaxshiroq ogohlantirish

uchun o'ngga burilishni anglatuvchi chiroqni yoqishni talab etadi. Ushbu belgi faqat kesishgan yo'l oldiga o'rnatilganda amal qiladi va belgilangan yo'nalishli transport vositalariga taalluqli emas.



**4.1.3. «Harakatlanish chapga»** (buyuruvchi belgi) chorraha oldiga o'rnatiladi, chapga burilishga hamda qayrilishga ruxsat beradi. Mazkur belgi faqat kesishgan yo'l oldiga o'rnatilganda amal qiladi va belgilangan yo'nalishli transport vositalariga taalluqli emas.



**7.5.3. «Hafta kunlari»** (qo'shimcha axborot belgisi) ayrim belgilarning ostiga o'rnatiladi va muayyan belgining qaysi hafta kunlari amal qilishini bildiradi. Haftaning qolgan kunlarida esa belgi amal qilmaydi.

## 1. Yotiq chiziqlar

Yo'ning qatnov qismi yuzasidagi chiziqlar, ishoralar, yozuvlar va boshqa belgilar harakatlanish tartibini belgilaydi. Yo'l yuzasidagi yotiq chiziqlarning deyarli barchasi oq rangda, ammo 1.4., 1.10., 1.17. yotiq chiziqlar esa sariq rangda bo'ladi.

1.1. – qarama-qarshi yo'nalishlarda harakatlanayotgan transport oqimlarini ajratadi, yo'ning xavfli joylaridagi harakatlanish bo'lagi chegarasini bildiradi; yo'ning kirish taqiqlangan qismini anglatadi; transport vositalarining to'xtab turish joyi chegarasi hamda avtomagistrallar qatoriga kiritilmagan yo'ning harakatlanish qismi chegarasini bildiradi. 1.11. chizig'ini bosib o'tishga uning uzoq-uzoq tomonidan, shuningdek, sidirra chiziq tomonidan esa faqat quvib yoki chetlab o'tishni tugatayotganda ruxsat etiladi. Agar 1.1. chiziq harakatlanish qismining chetini bildirsa, uni istisno tariqasida ruxsat etilgan hollardagina bosib o'tish mumkin, qolgan hollarda esa bunday chiziqni bosib o'tish taqiqlanadi.

1.2. (enli sidirg'a chiziq) – avtomagistrallarda harakatlanish qismi chegarasini bildiradi. Bunday chiziqni istalgan tomondan bosib o'tish mumkin.

1.3. – to'rt va undan ortiq harakatlanish bo'lagi bo'lgan yo'llarda qarama-qarshi yo'nalishdagi transport vositalari oqimini ajratadi. Ushbu chiziqni bosib o'tish taqiqlanadi.

1.4. – sariq rangli bo'lib, to'xtash taqiqlangan joyni bildiradi. U yakka holda yoki 3.27. «To'xtash taqiqlanadi» taqiqlovchi yo'l belgisi bilan birga qo'llaniladi. Mazkur chiziq yo'ning harakatlanish qismi chetiga yoki yo'l chetidagi to'siq (bordiyur)ning ustiga chiziladi.

1.5. – ikki yoki uch bo'lakli yo'llarda qarama-qarshi yo'nalishlarda harakatlanayotgan transport vositalari oqimini ajratadi; bir yo'nalishda harakatlanish uchun mo'ljallangan ikki yoki undan ko'p bo'lakli yo'llarda bo'laklarning chegaralarini bildiradi. 1.5. chiziqni istalgan tomondan bosib o'tish mumkin.

1.6. (yaqinlashish chizig'i – har bir chiziqning uzunligi ular orasidagi masofadan uch barobar katta bo'lgan uzoq-uzoq chiziq) – qarama-qarshi yoki bir yo'nalishda harakatlanayotgan transport vositalari oqimini ajratuvchi 1.1. yoki 1.11. chizig'iga yaqinlashayotganlik haqida ogohlantiradi. Bu chiziqni istalgan tomonidan bosib o'tish mumkin.

1.7. – (har bir chizig'i qisqa va oralari shu chiziqlar bo'yiga teng bo'lgan uzoq-uzoq chiziq) – chorradagi harakatlanish bo'laklarini bildiradi. Mazkur. chiziqni istalgan tomonidan bosib o'tish mumkin.

1.8. (enli uzoq-uzoq chiziq) tezlanish yoki sekinlanish bo'lagi bilan yo'ldagi harakatlanish qismining asosiy bo'lagi o'rtasidagi chegarani bildiradi (bunday chiziq chorrahalar, yo'ning turli sathda kesishgan qismlari, avtobuslar to'xtash joyi kabilarda uchraydi). Ushbu chiziqni istalgan tomonidan bosib o'tish mumkin.

1.9. – reversiv harakatlanishda qatnov qismining chegarasini belgilaydi; reversiv harakatlanish amalga oshirilgan yo'llarda (reversiv svetofori o'chirilgan holatda) qarama-qarshi yo'nalishdagi transport oqimini ajratadi.

1.10. – sariq rangli bo'lib, to'xtab turish taqiqlangan joyni bildiradi. U yakka holda yoki 3.28. «To'xtab turish taqiqlanadi» taqiqlovchi yo'l belgisi bilan qo'llaniladi va yo'ning harakatlanish qismi chetiga yoki yo'l chetidagi to'siq (bordiyur) ustiga chiziladi.

1.11. – faqat biror bo'lakka qayta tizilishga ruxsat etadi, bir yo'nalishdagi yoki qarama-qarshi kelayotgan transport oqimlarini ajratadi; qayrilib olish, to'xtash maydonchalari va shunga o'xshashlarga kirish uchun mo'ljallangan joylarda manyovr faqat bir yo'nalishda ruxsat etilganligini ko'rsatadi.

1.12. (to'xtash) – 2.5. «To'xtamasdan harakatlanish taqiqlanadi» imtiyoz belgisi yoki svetofor (tartibga soluvchi)ning taqiqlovchi ishorasida haydovchi to'xtashi kerak bo'lgan joyni ko'rsatadi.

1.13. – kesishgan yo'lda harakatlanayotgan transport vositasiga yo'l berish zarur bo'lganda haydovchi transport vositasini to'xtatishi lozim bo'lgan joyni ko'rsatadi.

1.14.1., 1.14.2. (zebra) – yo'ning harakatlanish tartibga solinmagan qismida piyodalarning o'tish joyini bildiradi.



1.14.2. – belgining ishorali yo‘naltirgichlari piyodalarning harakalanish yo‘nalishini ko‘rsatadi.

1.14.3. – piyodalarning harakati svetofor yordamida tartibga solinganini bildiradi.

1.15. – yo‘lning velosiped yo‘lkasi kesib o‘tgan joyini bildiradi.

1.16.1.–1.16.3. – transport vositalari oqimi ajraladigan yoki qo‘shiladigan joylardagi yo‘naltiruvchi orolchalarni bildiradi.

1.17. – sariq rangli bo‘lib, belgilangan yo‘nalishli transport vositalarining to‘xtash hamda taksilarning to‘xtab turish joylarini bildiradi.

1.18. – chorrahada bo‘laklar bo‘yicha ruxsat etiladigan harakalanish yo‘nalishlarini ko‘rsatadi. Yakka holda yoki 5.8.1., 5.8.2. «Bo‘laklar bo‘yicha harakatlanish yo‘nalishi» axborot-ishora belgilari bilan qo‘llaniladi. Oxiri berk yo‘l tasvirlangan chiziq shu yo‘nalishdagi yon tomonda joylashgan qatnov qismiga burilishning taqiqlanganligini bildiradi. Chetki chap bo‘lakdan chapga burilishga ruxsat beruvchi yo‘naltirgich shu bo‘lakdan qayrilishga ham ruxsat beradi.

1.19. – harakatlanish qismining toraygan (shu yo‘nalishdagi harakatlanish bo‘laklarining soni kamaygan) joyiga yoki qarama-qarshi yo‘nalishdan kelayotgan transport vositalari oqimini ajratuvchi 1.1. yoki 1.11. chizig‘iga yaqinlashganlik haqida ogohlantiradi. Birinchi holatda 1.18.1.–1.18.3. «Yo‘lning torayishi» ogohlantiruvchi yo‘l belgilari bilan qo‘llanilishi mumkin.

1.20. – haydovchini 1.13. chizig‘iga yaqinlashayotgani haqida ogohlantiradi.

1.21. («STOR» yozuvi) – 2.5. «To‘xtamasdan harakatlanish taqiqlanadi» imtiyoz belgisi bilan birga qo‘llanilganda 1.12. chizig‘iga yaqinlashayotganlik to‘g‘risida ogohlantiradi.

1.22. – yo‘l (harakatlanish yo‘nalishi)ning raqamini ko‘rsatadi.

1.23. – yo‘lning faqat belgilangan yo‘nalishli transport vositalari uchun mo‘ljallangan bo‘lagini bildiradi.

Reversiv svetoforlar bo‘lmaganda yoki ular o‘chirib qo‘yilganda 1.9. chizig‘i haydovchining faqat o‘ng tomonida bo‘lsa, uni bosib o‘tishga ruxsat etiladi.

Reversiv svetofor yoqilgan paytda bir yo‘nalishli bo‘laklarni ajratayotgan 1.9. chizig‘ini istalgan tomonidan bosib o‘tishga ruxsat etiladi. Reversiv svetofor o‘chirilganda, haydovchilar darhol 1.9. chizig‘idan o‘ngga qayta tizilishlari kerak va ularning qarama-qarshi yo‘nalishdagi transport vositalari oqimini ajratuvchi 1.9. chizig‘ini bosib o‘tishlari taqiqlanadi.

Shu o‘rinda alohida ta’kidlash joizki, agar ko‘chma tirgakka o‘rnatilgan vaqtinchalik yo‘l belgilari va chiziqlar ma’no jihatidan bir-biriga zid kelsa, haydovchilar vaqtinchalik yo‘l belgilariga amal qilishlari kerak.

## **2. Tik chiziqlar**

Tik chiziqlar yo‘l inshootlari va jihozlarining yuzalariga ketma-ket chizilgan yo‘l-yo‘l oq-qora chiziqlar majmuisidan iborat bo‘lib, ularning o‘lchamlarini ko‘rsatishda ko‘z bilan chamalash vositasi sifatida xizmat qiladi.

2.1. – harakatlanayotgan transport vositalariga xavf tug‘diradigan yo‘l inshootlarining tik elementlari (ko‘priklar va osma yo‘llar, ustunlar va hokazolar)ni bildiradi.

2.2. – tonnellar, ko‘priklar, osma yo‘l va ko‘priklarning pastki qirrasini bildiradi.

2.3. – ajratish bo‘laklaridagi yoki «xavfsizlik orolchalari»dagi dumaloq ustunlarni bildiradi.


2.4. – yo‘naltiruvchi, beton yoki temir beton ustunlar, to‘siq tirgaklar va hokazolarni bildiradi.


2.5. – yo‘lning kichik radiusli burilishlari, tik nishabliklar va boshqa xavfli joylarda yo‘l chetiga o‘rnatilgan to‘siqlarning yon yuzalarini bildiradi.

2.6. – boshqa joylardagi to‘siqlarning yon yuzalarini bildiradi.


2.7. – yo‘lning xavfli joylarida uning chetidagi to‘siq (bordiyur) va yo‘l sathidan baland bo‘lgan «xavfsizlik orolchalari» chetini bildiradi.

# YOTIQ CHIZIQLAR





# TIK CHIZIQLAR



**AKILOV Akmal Akbarovich;**

**DIMETOV Rustamboy Nishonboyevich**  
*iqtisod fanlari nomzodi, dotsent*

# **YO‘L HARAKATI QOIDALARI**

**(BELGILAR, ATAMALAR VA TUSHUNCHALAR)**

*Lug‘at-ma‘lumotnoma*

**Muharrir** Sarvarbek Qosimov  
**Texnik muharrir** Davronbek Hamidullayev

---

Bosishga ruxsat etildi 04. 04. 2012. Nashriyot hisob tabag‘i 4,0  
Adadi 30. Buyurtma № . Bahosi shartnoma asosida.

---

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi  
100197, Toshkent sh., Intizor ko‘chasi, 68.